

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
INSTITUTI

SHARQ FILOLOGIYASI VA TARIX FAKULTETI MARKAZIY
OSIYO XALQLARI TARIXI KAFEDRASI

Tog'ayeva Dilnoza Miraxmatovna

Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida
ichki va tashqi diplomatik munosabatlar

BITIRUV – MALAKAVIY ISHI

Ta'lim yo'nalishi: 5220200 – Tarix

Ilmiy rahbar: T.F.D. Professor M.M Is'hoqov

Toshkent-2011

Himoyaga ruxsat berildi

Fakultet dekani: Filologiya f. n. dotsent. J.Ziyomuhamedov_____

Kafedra mudiri: Tarix f. d. professor M.Is'hoqov_____

Mundarija

KIRISH.....	3 - 6
I BOB. Hofiz Tanish Buxoriyning hayoti va “Abdullanoma” asarining yaratilish tarixi va Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi ijtimoiy –siyosiy hayoti.....	7 – 23
I. 1 Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarining yaratilish tarixi	7 - 11
I. 2. Abdullaxonning taxtga kelishi arafasida Buxoro amirligida ijtimoiy – siyosiy vaziyat.....	12 - 16
I. 3. Abdullaxonning xonlik siyosiy hayotida amalgam oshirgan islohatlari.....	17 - 22
II. BOB. Abdullaxonning siyosiy hayotda diplomatiyaning o’rni.....	23 - 51
II. 1. Abdullaxon va Akbarsoh o’rtasidagi diplomatik aloqalar.....	23 – 38
II. 2. Abdullaxonning Dashti Qipchoq va boshqa mintaqalari bilan diplomatik munosabatlari	39 – 47
II. 3. Abdullaxonning Rossiya bilan savdo va diplomatik munosabatlari... ..	47 - 51
XULOSA	51 - 53
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	54 - 55

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqiligimizga erishganimizdan so'ng biz tariximizga doir har bir voqealarni asl holaticha o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Chorizm davrida tariximizga haqqoniylik bilan yondashilmadi sovet tizimiga mos qilib o'zbek fuqarolariga o'rgatilgan bo'lsada, ota – bobolarimiz o'zligini, o'z tarixini unutmasdan bizgacha qoldirishga harakat qildilar. Zero tarix bugun va kelajakning ko'zgusi. Mustaqil hayotimizda buyuk maqsadlar sari intilishimiz uchun sharoitlarning yaratilganligi hamda buyuk kelajak uchun madaniy – ma'naviy merosga ega bo'lishimiz darkor.

El – yurtimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida bunday mash'um xatarlarni necha bor ko'rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz, tariximiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shunday fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etish lozim. Zero o'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunni unutadigan millatning kelajagi yo'q¹. Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq tarixni o'rganish borasida muhim qadamlar qo'yildi. 1998 yil 26 iyunda Prezident Islom Karimovning bir guruh tarixchi olimlar va ijodkor ziyolilar vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvidan keyin tarixni o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Ushbu uchrashuvda davlat rahbari tarixni qayta tiklash borasidagi eng dolzarb masalalarni ko'rsatib berdi. Hech qaysi bir xalq o'tmishini o'rganmay, o'zining zamon va makondagi o'rnini aniq belgilab olmasdan, nasl-nasabini, kimligini bilmasdan turib rivojlanishi mumkin emasligini ta'kidlaydi². Shuningdek, I.A Karimov ushbu uchrashuvda davlatchilik tarixini o'rganish va qayta tiklash davlat siyosati darajasidagi muhim vazifalardan biri ekanligini quyidagicha bayon etgan edi: «Davlatchilik bugungi kunda o'ta siyosiy masala bo'lib turibdi. O'zbek tarixchilarining bugungi kundagi

¹ Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Ma'naviyat nash. T. 2008. 3 – 4. b.

² Karimov I. A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" T. 7. – Toshkent. O'zbekiston. 1999. b. 135.

asosiy vazifasidir. Asosiy maqsad davlatchiligimizning ilmiy nuqtai nazardan asoslangan tarixini yaratishdir»³.

Darhaqiqat tarixiy bir davrda ajdodlarimiz qoldirib ketgan tarix manbalarni biz albatta mukammal darajada yoritib kelajakka yetkazib berishimiz lozim. Ana shuningdek asarlardan biri bo'lgan “Abdullanoma” asari haqida mulohaza yuritish ekanimiz, albatta o'rta asr davlatlarining qay darajada mustahkam va qudratliyligini o'sha davlatning madaniyati hamda davlat tuzilish strukturasi e'tibor qaratib uni aniqlashimiz mumkin. Shuningdek XVI asr ikkinchi yarmida Buxoro xonligining qo'shni davlatlar bilan olib borgan diplomatik, savdo va madaniy aloqalarini o'zbek davlatchiligi tarixi tamoyillari nuqtai nazaridan chuqur tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri deyish mumkin. Hamda bugungi kunda ham bu davlatlarning ahamiyat qay darajada ekanligini bilishimizdir. Shayboniylar davlati haqida Hofiz Tanish Buxoriy qimmatli manba bizga taqdim etganligi, bu albatta o'tmishimizdagi voqealarning haqiqiylikiga ishonchni oshiradi. Ana ushningdek asarlardan bu davlatlarning hayotimizda qay darajada dolzarbligini bilishimiz mumkin. Albatta biz o'tmishimizni mukammal bilib, ularni kelajak avlodga salmoqli darajada qoldirishimiz oldimizga qo'yilgan eng dolzarb masaladir.

Agar biz O'zbekistonimizni dunyoda taranum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlod xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk tarixchilarimizni tarbiyalashimiz dolzarbdir⁴.

Mavzuning manbashunosligi: Markaziy Osiy hududidagi har bir davlat, qabila, urug' kabi jamoalarni manbalar asosida o'rganib chiqish bu albatta, har bir tarixchining oldiga qo'yilgan yagona maqsadlardan biridir.

³ Karimov I. A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” T. 7. – Toshkent. O'zbekiston. . 1999. B. 139.

⁴ Karimov I. A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” Ma'naviyat nash. T. 2008 140. b.

Negaki, tarix bugun va ertangi kunni belgilab beruvchi asosiy mezonidir. Tarixiy manbalarga asoslangan bu davlatlar haqida qo'lyozma manbalari ko'p uchraydi. Asosiy manba sifatida Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", Gulbadambedinning "Humoyunnoma", Abul Fazl ibn Muborak "Tarixi Akbarshoh", Rashididdin Fazlulloh ibn Imomuddaavla Abulxayrning "Jome ut - tavorix", Mirza Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy", Said Muhammad Sodiq Ali "Akbarнома", Hasanxoji Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" Mutribiyning "Tazkirat shuaro", Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" kabi shaxslar Abdullaxon II ni va shayboniylar davlatining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diplomatik aloqalari va albatta shajaralari haqida ham ma'lumot keltirib o'tganlar.

Tadqiqotning o'rganilish darajasi: Buxoro xonligi tarixini bir qanchasi rus va o'zbek olimlari o'rgangan. Buxoro xonligida XVI asr Shayboniylar hukumronligi haqida bir qancha adabiyotlarda keltirib o'tilgan bo'lib B. Ahmedovning "Tarixdan saboqlar", va "O'zbek ulusi", Azamat Ziyoning "O'zbek davlatchilik tarixi", Barakaevning "Buxoro tarixi eng qadimgi davrdan Ulug' oktyabr inqilobigacha", Alimovning "O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan aloqalari XII – XIV asrlar", I. Nizomiddinovning "XVI - XVIII asrlarda O'rta Osiyo Hindiston munosabatlari", "Madaniy hamkorligimiz sahifalari O'rta Osiyo va Hindiston munosabatlari", "O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari", Muhammadjonovning "Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlariga doir manbalar", Ermatovning "O'rta Osiyo Rossiya va Hindiston xalqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalari tarixi", Shishkinning "O'rta Osiyoning Xitoy xalqlari bilan qadimgi madaniy aloqalari", Aminovning "XVI – XX asrdagi O'rta Osiyo Rossiya bilan tarixiy iqtisodiy aloqalari", kabi bir qancha olimlar va boshqa mualliflarning asarlarini qayd etish mumkin. Shuningdek biz ham ushbu bitiruv malakaviy ishda yuqoridagi asarlardan foydalandik.

Biktiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari:

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'z tariximiz haqida kengroq va haqqoniyroq ma'lumotlar olish imkoniyatiga ega bo'ldik. Bu albatta bizga yaratilgan katta imkoniyatdir. Shuning uchun tarixiy davrimizning har bir voqealarini o'rganishdir.

Biz bu davlatni o'rganishdan maqsad, Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarining tahlili jarayonida ichki va tashqi diplomatik munosabatlarni yoritib berishdir⁵. Darhaqiqat Shayboniylarning davlatimiz hayotida tutgan ijobiy va salbiy darajalarini bilish asosiy maqsadimizdir. Shu o'rinda esa biz uchun albatta kelajak avlodga tariximizda azal – azaldan bo'lgan davlatlarimizning qudratliligini anglatishimiz lozimligidir. Undan tashqari bu davlatning diplomatik munosabatlari qay darajada yetukligini aniqlashimizdir.

Tadqiqotning yangiligi: Bu mavzuni yangiligi haqida aytadigan bo'lsak, shayboniylar davlati haqida yetarli darajada adabiyotlar yozilgan, ammo o'sha kitoblarning tadqiqot darajasida davlatning boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlari haqida nisbatan ko'p to'xtalib o'tdek.

Bitiruv malakaviy ishning vazifasi

- mavzuni yoritishda qo'yilgan vazifalar quyidagilar:
- mavzuga oid manbalarni to'plash:
- mavzuga oid adabiyotlarni to'plash:
- manba va adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish
- manba va adabiyotlarda shayboniylar haqida ma'lumot to'plash:
- shu asosda mavzuni yoritish.

Tadqiqotning tuzilishi: Kirish, 2 ta bob, 6§, I bob 3§, II bob 3§,

⁵ V. Rahmonov va Y. Ermatova tarjimasi. "Tarixiy Rashidiy" "Sharq" nash. T. 2010. 242. b.

xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarining yaratilish tarixi va Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi ijtimoiy – siyosiy hayot

I. 1. Hofiz Tanish Buxoriyning hayoti va “Abdullanoma” asarining yaratilish tarixi

“ Abdullanoma” yoki “ Sharafnomayi shohiy” asarining muallifi XVI asrda yashab ijod qilgan. U Buxorolik shoir va tarixchi olim Hofiz Tanish Buxoriydir. U 1549 – yil mansabdor oilada tug’uladi va otasi Mir Muhammad al – Buxoriy xonlikning nufuzli kishilaridan biri bo’lib, 1550 – yil Koshg’arga ketib o’sha yerda vafot etadi. Hofiz Tanish Buxoriy esa o’z davrining ma’lumotli kishilaridan bo’lib, u 1584 – yil Abdullaxonning amaldorlaridan biri Qulbobo ko’kaldoshning tavsiyasi bilan hukumdorning xizmatiga shaxsiy voqeanavis, tarixchi bo’lib o’tadi⁶.

Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” yoki “Sharafnomayi shohiy ” asari bilan tarixda qolgan shaxsdir. Kitobda O’zbekiston, Qozag’iston, shuningdek Afg’oniston va Eronning XVI asrdagi ijtimoiy – siyosiy tarixi ham bayon qilingan bo’lib, bu xalqlar o’rtasidagi madaniy, siyosiy, savdo, diplomatik munosabatlar haqida qimmatli ma’lumotlar keltirib o’tadi. Undan tashqari, asarda Buxoro xonligi bilan Eron, Hindiston, Qoshg’ar va Rossiya o’rtasidagi munosabatlar haqida ham ma’lumotlar keltirib o’tadi. Hofiz Tanish Buxoriy asarini XVI asrning 80 yillarida yozib tugallaganligi haqida zamondoshlaridan Mutribiy aytib o’tadi. Shuningdek Mutribiy bu asarning oxirgi qismini xonning buyrug’i bilan qozi Poyanda Zominiy yozgan deb keltirib o’tadi⁷.

“Sharafnomayi shohiy” muallifning rejasiga ko’ra asar muqaddima, ikki qism yoki maqola va xotimadan iborat qilib yozishni xoxlagan. Muqaddimada Allohning madhu va hamdu sanosi, homiy, hukumdor Abdullaxonning shaniga

⁶ A. Madraimov, G. Fuzailova “Manbashunoslik” O’zb. Faylasuflar milliy jam. nash. T. 2008 216. b.

⁷ B. Ahmedov “Tarixdan saboqlar” “O’qituvchi” nash. T. 1994. 393. b.

aytiladigan tavsiflar, Abdullaxonning ota bobolari, qadimda Markaziy Osiyoda hukumronlik qilgan turk – mo'g'ul qavmlari, Chingizxon va uning avlodlari haqida ma'lumot keltirgan. Birinchi maqolada Movoraunnahrda 1533 – 1583 - yillarda sodir bo'lgan voqealar keltirilgan. Ikkinchi maqolatda esa O'zbekiston, Qozag'iston va qo'shni davlatlarda yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar keltirib o'tilgan. Xotimada esa Abdullaxonning ajoyib fazilatlari, u bilan bir davrda yashagan shayxlar, vazirlar, amirlar, va shuningdek Abdullaxon zamonida qurilgan binolar haqida ma'lumot keltirib o'tishni xoxlagan. Lekin asar yozilishi o'zgargan, ya'ni birinchi va ikkinchi reja qo'shilib yozilgan, xotima esa muallifning bevaqt o'limi tufayli yozilmay qolgan⁸.

Muallif asar muqadimasida keltirishicha Narshaxiyning “Tarixi Buxoro”, shayxulislom Sayfiuddin Abubakr Abdullo Balxiyning “Fazoili Balx”, Istaxriyning “Kitobi masolik ul - mamolik”, Juvayniyning “Tarixi Jahonkushoyi”, Rashiduddinning “Jome ut - tavorix”, Mirxondning “Ravzat us - safo”, Sharfiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Mirza Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” kabi asarlardan foydalanib asarni yozadi. XVI asrda sodir bo'lgan voqealar sroyda muntazam foydalanadigan kundalik daftar, sodir bo'lgan siyosiy ijtimoiy masalarni o'zi guvohi bo'lib, 70 – 80 yillar oralig'idagi ma'lumotlarni o'zi ketirib o'tadi⁹.

“Sharafnomayi shohiy” da Firdavsiy, Rudakiy, Sa'diy, Kamoliddin Binoiy, Mushfiqiy, “Qur'oni karim” oyatlari va shunga o'xshagqan buyk shaxslarning she'riy parchalari keltirilgan. Kitobda siyosiy voqealar bilan birga ijtimoiy – iqtisodiy mavzularga doir ma'lumotlar ham keltirib o'tilgan. Shu jumladan soliq, iqto, suyurg'ol, xiroj, ixrijot, tog'ar, kabi davlat tayanch birliklari ham keltirib o'tilgan¹⁰.

Ushbu asarning qo'lyozma nusxalari ko'p, asl matinning uchdan ikki qismi Sank – Peturburglik olimi M. Salohutdinova ruscha tarjimasi bilan chop

⁸ Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. II tom “Sharq”nash. T. 2000. 270. b.

⁹ B. Ahmedov “Tarixdan saboqlar” “O'qituvchi” nash. T. 1994. 391. b.

¹⁰ A. Madraimov, G. Fuzailova “Manbashunoslik” O'zb. Faylasuflar milliy jam. nash. T. 2008 217. b.

etgan. Kitob 1942 – 1952 – yillari Sodiq Mirzayev va oxirgi qismi Yu. Hakimjanovlar tomonidan 60 – yillar o'zbek tiliga tarjima qilindi. Biroq 1- 2 – jildlari zarur tuzatishlar, tadqiqot izohlari bilan 1966 va 1969 – yillarda B. Ahmidov tomonidan chop etilgan. 3 – 4 – jildlarini 1995 – 1997 – yillarda chop etadi¹¹.

“Abdullanoma” ning ikkinchi kitobida Movoraunnahr va Dashti Qipchoqda to'rt yil 1579 – 1583 – yillarda bo'lib o'tgan siyosiy voqealar hamda Abdullaxonning Badaxshon, Ko'lob, Hirotni buysundirishi bilan bog'liq voqealar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Bizga ma'lumki, Abdullaxon 1567 – 1576 – yillari og'ir kurashlardan so'ng, Movoraunnahrni batomom birlashtirishga muvofiq bo'ladi. Shu o'rinda mustaqil markaziy davlat aparatini o'rnatishga muvofiq bo'ladi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, 1579 – yil noyabr oyi o'rtalarida Sirdaryoning shimoliy tomonidagi yerlarni ya'ni, Toshkent, Turkiston, Sabron, Sayram viloyatlarini ham Buxoro xonligining tarkibiga kiritish uchun astoydila harakat qiladi. Jumladan bu urush to'rt yil davom etadi, shu davr mobaynida Abdullaxon bu hududlarga olti martadan hujum qilgan edi. Shu o'rinda shayboniy sulolasining yana bir qancha vakillari bilan ham kurash olib borib, ulardan Boboxon, Buzaxo'r sulton, darvish sulton va boshqalarni Ulug'tog' (Ulutau) gacha taqib qilib boradi va oxiri qozoq xonlari Shig'oyxon va Tavakkal bilan ittifoq tuzib, ular ustidan to'la g'alaba qozonishga muvoffiq bo'ladi¹².

Hofiz Tanish Buxoriy saroy tarixchisi bo'lgan edi. Shuning uchun ham Abdullaxonning yurishlarini zo'r ko'tarinki ruhda tasverlagan. Shu o'rinda bu yurishlarni kitobida saroyni osoyishtaligini ta'minlash uchun qilingan kurashlar deb takidlaydi. Biroq asarda keltirilgan voqealarni diqqat bilan e'tibor bersak, muallif oddiy xoalqning bu yurishlardan behisob aziyat chekkanligini guvohi bo'lamiz. Asarda bo'ysunmagan shahar va qishloqlarning bo'ysunmaganlarini qirib tashlanganligi va mol – mulklari talon taroj qilinganliklari haqida ko'pgina

¹¹ Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. II tom “Sharq”nash. T. 2000. 270. b.

¹² Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. II tom “Sharq”nash. T. 2000. 270. b.

ma'lumotlar uchraydi.

“Abdullanoma” ning Sodiq Mirzayev tarjimasiga asos bo'lgan nusxasi (O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, inv. №2207) to'liq bo'lmay, 1583 yil voqealari bilan tugallangan, jumladan asarning sank – Peturburg, Boku va Dushanbada saqlanadigan nusxalari 1584 – 1588 yillar voqealarini ham o'z ichiga oladi. Asarning 1584 – 1588 - yillarda Badaxshon, Ko'lob va Hirotning Buxoro xonligi qo'shib olinishi, movoraunnahr va Xorazmning ana shu yillar ichidagi ijtimoiy – siyosiy ahvolinio'z ichiga olgan qismi Sank – Peturburg va Boku nusxalari asosida arab va fors tiliga yunisojja Hakimjonov tarjima qilgan.

Asarning Mirziyayev qilgan tarjimasida ikkinchi bobning bir qismi bilan tugaydi. Ana shu tarjima qismini nashrga A. Juvonmardiyev va ilmiy xodima M. Xo'jayevlar ishtirok etadilar¹³. “Abdullanoma” asari haqiqatdan bizga tarixda bo'lib o'tgan voqealar haqida haqiqatni yoritib bergan asardir. Shu jumladan, bu kitobni qancha ko'p o'qilmasin undagi voqaelardan yanada yangi tarixiy jarayonlarni aniqlashga musharaf bo'lamiz. Darhaqiqat asar Abdullaxonning buyrug'i bilan yozilganligini yoddan chiqarmasligimiz lozim, negaki bu asarda keltirib o'tilgan voqealar albatta, Abdullaxonning olib borgan siyosatini qay darajada yuksakligi hamda, tarixiy voqealarning ketma – ketligi aniq qilib berilgan. “Abdullanoma” asari har jihatdan mukammal yozilgan tarixiy manbadir. Abdullaxonning tasnifi albatta asarda ajoyib qilib, yoritib berilgan. Shuningdek asarda o'sha davr zamonini bilan qaraydigan bo'lsak, oddiy xalq albatta qiynalganligini ham Hofiz Tanish Buxoriy o'z asarida keltirib o'tadi. “Abdullanoma” asari haqida bir qancha olimlar ham tadqiqotlari jarayonida uning mukammalligini va uning o'sha davr zamon ruhida yozilganini haqiqatni yoritilishi boshqa asarlarga nisbatan salmoqli o'rinda turganligini ham ta'kidlab o'tadi. Asarda Abdullaxonning taxtga kelishi jarayonida siyosiy vaziyat qay vdarajada bo'lganligi haqida ko'p ma'lumot uchramaydi, biroq Abdullaxonning viloyat va shaharlarga qilgan yurishlari

¹³ Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. II tom “Sharq”nash. T. 2000. 270. b.

haqida ma'lumotlar keltirilgan. Darhaqiqat tarixiy voqealarning jarayoni hamda Dashti Qipchoqdagi elchilik aloqalari, Badaxshon elchilik aloqalari haqida ham ko'pgina ma'lumotlar batafsil yoritib berilgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy Abdullaxon saroyining tarixchisi bo'lgan va unig asarida Abdullaxonga tasnif berilganligi ham biroz bo'lsada namoyon bo'ladi.

Hofizi Tanish Buxoriyning qachon vafot etgani ma'lum emas. Mashhur adabiyotshunos olim va shoir Mutribiy "Tazkirat ush-shuaro" asarida "Janobi Hofizi Tanish ulamo jumlasidandir. Maleho Samarqandiyning ma'lumoticha Hofiz Tanish Buxoriyni 1589 – yil xotini tomonidan zaharlab o'ldirilgan.

U Mahdumiy Hasan hojaning tazkirasida tilga olinadi. Yuqorida zikr etilgan Hofizining og'a-inilari uning vafotidan keyin xotini qandaydir jinoyat qilganlikda ayblab unga da'vogar bo'lganlar va oliy farmonga ko'ra uning Buxoro minorasidan tashlab yuborilishiga erishganlar, degan mish-mishlar bor" deb yozgan¹⁴. Lekin uning Abdullaxon vafoti (1006/1598) dan so'ng Ashtarxoniylar sulolasidan bo'lgan Imomqulixon (1611 –1642) saroyida yashaganligi va unga atab 7200 misradan ortiq she'r yozganligi ham ma'lum. Marhum Ibodulla Odilov (1872-1944) Hofizi Tanish Buxoriyning "Imomqulinoma" degan she'riy asar yozganligini aytadi. Ammo bu asar "Suhayliy" taxallusi bilan mashhur bo'lgan shoir tomonidan yozilgani ma'lum.

Xullas "Sharafnomayi shohiy" yirik shoh asar bo'lib, uni qancha ko'po'qisa ham unda o'rganish lozim bo'lgan shuncha ko'p yangiliklar ochiladi deb V. V. Velyaminov – Zernov aytib o'tadi. Shuning uchun ham bu asar ko'p vaqtlardan beri sharqshunos olimlarning diqqat – e'tiborini o'ziga tortib kelyapdi. Asar haqida V. V Velyaminov – Zernov, akademik V. V. Bartoldning shogirdi L. A. Zimin, Sodiq Mirzaev, M. A. Salohiddinova, N. Sayfiyev, ingliz olimi G. Yete. Ch. A. Storiylar o'z fikrlarini aytib o'tishgan. V. V Velyaminov – Zernov, L. A. Zimin, Sodiq Mirzaev, M. A. Salohiddinova asarning bir qismini rus va o'zbek yillariga tarjima qilishdi. V. V Velyaminov – Zernov tarjimasi qisqa

¹⁴ B. Ahmedov "Tarixdan saboqlar" "o'qituvchi" nash. T. 1994. 392. b

bo'ib uni nashrga tayyorlagan, biroq chop etilmagan.

L. A. Zimin ning tarjimasi esa Uminyakovning bso'zlariga qaraganda, 1918 – yili Toshkentda chop etilgan. Lekin olimlarning tezlikda O'zbekistonga kelishi natijasida bu ish to'xtab qoldi., 1924 – yil Bartold Ziminning tarjimasini matrealllarini topib, nashr qilish kerakliginin aytadi. Sodiq Mirzaev, M. A. Salohiddinovalar asarning tortdan bir qismini rus va o'zbek tillariga tarjima qilganlar¹⁵.

¹⁵ B. Ahmedov “ Tarixdan saboqlar” “o'qituvchi”nash. T. 1994. 393 b

I. 2. Abdullaxonning taxtga kelishi arafasida Buxoro amirligida ijtimoiy – siyosiy vaziyat.

XVI asrning boshlarida bir vaqtlar Volga daryosi bo'yida tashkil topgan Oltin Urda davlatidagi Shayboniynon boshchiligidagi o'zbek ko'chmanchi qabilalari Temuriylar davlatini tor-mor qilib, O'rta Osiyoda o'z hukumronliklarini o'rnatadi. Shayboniylar Jo'ji sulolasidan to'qqizinchi hukmdor bo'lgan O'zbekxon ismiga nisbat berib, o'zlariga bir siyosiy qo'shma nom — o'zbek nomini qabul qilib olganlar. Aslida ular Ko'k Urdaning sharqida, Volga bilan Orol dengizi orasida yashovchi turk-mo'g'ul qabilalari edilar. German Vamberining hisoblashicha, o'zbekning lug'oviy ma'nosi «shaxsan o'ziga mustaqil xo'jayin», erkin demakdir.

Demak shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek xalqining shakllanish ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Shayboniylar bostirib kiringuncha bu o'lkada yashovchi aholi turklar nomi bilai yuritilib, ularning xalq sifatida shakllanishi IX—X asrlarga to'g'ri kelgan. Buxoro viloyatida ham IX—X asrlardayoq ular xalq sifatida shakllana boshlagan edilar¹⁶. XVI asrning boshlarida Volga daryosi bo'yida tashkil topgan Oltin Urda davlatidagi Shayboniynon boshchiligidagi o'zbek ko'chmanchi qabilalari Temuriylar

¹⁶ Barakaev "Buxoro tarixi" nash. "o'qituvchi". T. bet. 64.

davlatini tor-mor qilishda o'zlarining e'tibor va ishonchlarini Muhammad Shayboniyga qaratgan edilar, uni Shohbaxt deb atar edilar. Shayboniyxon 1451 yilda tug'ilgan edi. U yoshligidayoq istiqbol uchun porloq umidlar tug'dirgay edi. Shayboniyxon otasi Burdoq Sulton bilan onasi Qo'zibegimdan yoshligida yetim qolib, ukasi bilan birga otasining sodiq xizmatkori Qorachabekning himoyasida yashagan. Qorachabek bu shahzodalarga sadoqat bilan xizmat qilgan. Shayx Haydarning vafotidai so'ng Qorachabek ulg'aygan bu yetim shahzodalarni olib Abulxayr (Shayboniyxonning bobosi, o'zbeklarning hokimlaridan biri) oilasining dushmanlaridan Sirdaryoning quyi taraflariga qochib ketishga majbur bo'ladi.

Shayboniy ulg'ayib, ulug' bobosi Abulxayrxonning yo'qotgan shon-shavkatini qaytarmoq niyatida katta tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Xususan, Abulxayrxon ayni paytda Sirdaryoning yuqori oqimida yashayotgan Bug'ra Sultondan qasos olishga ahd qiladi va uning saroyiga hujum qiladi.

Uning oila a'zolari va qarindoshlaridan ko'p kishini qatl qiladi. Qochishga ulgurgan Bug'ra Sulton ham o'limdan qutulib keta olmaydi. Shayboniy uni toptirib, qatl ettiradi. Mazkur muvaffaqiyatli hujumdan keyin yosh shahzoda kuchaygan o'zbek suvoriylariga boshchilik qiladi. u so'ngra Temuriylarga qarshi kurashga o'tlanadi. Bu davrda Samarqand taxtida Abusaidning o'g'li Sulton Ahmad hokimlik qilar edi. Mamlakat shimoliy chegarasining noibi esa Qushliqxon o'g'li Majid Tarxon edi¹⁷.

Turkistonning shimoliy viloyatlaridagi hokimlar (tobelar) isyon ko'targan

¹⁷ Barakaev "Buxoro tarixi" nash. "o'qituvchi". T. bet. 65.

paytda, Abdulxayrning vorislaridan isyonni bostirish uchun foydalaniladi. Lekin o'zbek shahzodalari bu yerni o'zlarining ona Vatanlaridek his etganlari uchunmi yoki to'plagan kuchlari ta'siri bilanmi, xullas, har qanday qurolli xizmat uchun to'langan oddiy maoshga qanoat qilmaydilar. Shu bois O'tror, Sovron, Sig'noq shaharlarini ularga berib, rozi qilishni lozim ko'riladi¹⁸. Keyinchalik g'oyatda kengayib ketgan Shayboniy mamlakati shu tarzda ta'sis etiladi.

Shayboniyxon va uning dastlabki vorislari davrida Samarqand poytaxtligicha qolavergan bo'lsa. XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib Buxoroning siyosiy markaz sifatidagi roli osha boshlaydi.

Abdullaxon (to'liq ismi Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn xoja Muhammad ibn Abdullaxon) 1534 – yil Miyonko'l shahrida tug'ulgan 1598 – yil Ofarikent qishlog'ida vafot etgan va uni Buxoro yaqinidagi Bahovuddin majmuasiga dafn etiladi. Uning hayoti va Buxoro amirligida tutgan siyosiy mavqei haqida bir qancha fikrlar yuritamiz. O'zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukumdori, davlat arbobi, sarkarda, ilm – fan, ma'rifat, madaniyat homiysi¹⁹. Bobosi Jonibek sulton (vafoti 1528 [29] Karmana va Miyonko'l shaharlarining 1512 – 153 – yillar hokimi bo'lgan. Otasi Iskandar sulton o'g'li tug'ulganda Ofarikentni boshqargan, keyinchalik aka – ukalaridan biri vafot etgach Karmanani boshqargan. Abdullaxon II Shayboniyxon vafotigan so'ng parchalanib ketgan hududni qayta tiklagan, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog'idan qattiq kurash olib brogan. Toshkent hokimi Navro'z Ahmadxon (Baraqxon) bilan Koson yonida 1548 – yil shayboniylar manfaatlari zid kelgan. Mo'g'liston xoni Abdurashidxon va shayboniylardan Do'stum

¹⁸ Barakaev “ Buxoro tarixi ” nash. “o'qituvchi” . T. bet. 66.

¹⁹ B. Ahmedov “Ozbek ulusi” Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nash.”nur” T. 1992. 65 b.

sultonlari qo'shiniga qarshi Farob yonida 1554 – yilda jang bo'lib o'tadi. Yosh Abdulla sulton o'zining hukumdor sifatida 1551 – yil Karmanada bo'lgan jangda namoyon qilgan²⁰. Shuningdik bu viloyatga Toshkentdan Navro'z Ahmad va Samarqanddan Abdulatifxon hujum qilgan edi, biroq zafar Abdullaxonga quchgan edi. Sababi Iskandar sulton Amudaryo ortiga qochgan bo'lsa, Abdullaxon otasi vazifasini o'z zimmasiga olib muvofaqiyatli qarshilik ko'rsata olgandi.

Keyinchalik hududini Buxoro tomonga va janubiy sharqda Qarshi va Shahrisabz tomonga kengaytirishga intilgan. Bu say – harakat dastlab muvofaqiyatsiz chiqqan, hatto 1556 – yil ota mulkini tashlab Maymanaga qochishga majbur bo'gan. U amakisi Balx hokimi Prmuhammaddan harbiy yordam olib, piri jo'ybor xojalaridan Xoja Muhammad Islom ko'magida Navro'z Ahmadxon, keyinchalik uning o'g'illari Drveshxon va Bobo sultonlarga qarshi uzoq muddat kurash olib borgan²¹. Navro'z Ahmadxon 1556 –yil vafot etgach darhol Karmana va Shahrisabzda o'z hukumronligini tiklaydi. 1557 yil mayida Buxoroni qo'lga kiritadi va uni o'z poytaxtiga aylantiradi. 1561 – yil otasi Iskandarni davla boshlig'i – xon deb e'lon qilib, uning nomidan davlatni Abdullaxon boshqara boshlaydi va mamlakatning hududini kengaytirish uchun 1574 – yil Balxni, 1578 – yil Samarqandni, Toshkent, Sayram, Turkistonni 1583 – yili, Farg'onani esa 1583 – yil egallaydi. Asta – sekin hujumini kengaytirib 1582 – yil Dashtga yurish qilib Ulug' tog'ga qadar borgan. 1583 – yil Iskandar vafot etgach, mamlakatni o'z nomidan boshqara boshlaydi. Markaziy hokimyatga qarshi 1583 – yil ko'tarilgan Maymana va Garchiston, shuningdek 1585 – yil Badaxshondagi tartibsiz g'alayonlar bostirildi. Xorazmga esa ikki marta yurish 1594, 1596 – yillarda bo'lib, u yerda markaziy hokimyat qayta tiklandi. Abdullaxon II mamlakatni yaxlit holda tiklash uchun qo'shni davlatlarga ham qarshi hujum qilgan. Turkiya Movaraunnahrda o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida Abdullaxon II ga qarshi Bobo sultonga yordam bergan. Shuningdek

²⁰ O'zbekistn Milliy ensklopidiyasi . I tom . “dav milliy nashriyoti” T. 2000. 32 b.

²¹ O'zbekistn Milliy ensklopidiyasi . I tom . “dav milliy nashriyoti” T. 2000. 32 b.

Bobo sulton turk askarlari yordamida Abdullaxonga qarshi Nasaf yonida jang qilgan²². Abdullaxon safaviylar bilan Xuroson G'ilon shahri uchun kurashib o'z davlati tasarufiga qo'shib oladi. Shu o'rinda Sharqiy Turkistonga qilingan yurishda Qashqar va Yorkent viloyatlarini tasarufiga o'tkazgan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki Boburiylar ham Badaxshon, Shimoliy Afg'oniston va Xuroson uchun Abdullaxonga qarshi ilg'or kurashlar olib borganlar. Ayni damda Abdullaxon ham ularga qarshi Sind va Kashmirni 1583 – 1586 – yillarda egallab, davlatning janubiy chegaralarini mustahkamlaydi.

Abdullaxon davrida mamlakat hududi Qashqardan Orol va Kaspiy dengizi sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan xurosonning sharqiy qismigacha bo'lgan yerlardan iborat edi. Abdullaxon hayotining so'ngi yillarida o'g'li Abdulmo'min bilan chiqishmay qolishi tufayli Abdulmo'min 1582 – yilning kuzida Balxni otasi nomidan boshqara boshlaydi. Iskandarxon davrida Abdullaxon haqiqiy amalda hukumdor bo'lgani kabi, Abdulmo'min ham keksaygan otasiga nisbatan shunday mavqeini egallamoqchi edi. Faqat ulomalarning aralashuvi tufayli ota – bola o'rtasida ochiq kurash harakatlari boshlanmagan va Abdulmo'min otasiga bo'yin egishga majbur bo'lgan. Ular o'rtasidagi munosabat keskinlashganidan xabar topgan qozoq xonlaridan Tavakkalixon Toshkent viloyati va Toshkent – Samarqand oralig'idagi yerlarga bostirib kirib, unga qarshi yuborilgan qo'shini yenggan. Unga qarshi safarga otlangan Abdullaxon Samarqandga yetganda vafot etgan

Abdullaxon faol tashqi siyosat olib brogan. Bu davrda shayboniylar Eron Hindiston, Turkiya, Xitoy, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan keng diplomatik, iqtisodiy, savdo aloqalari olib brogan. Abdullaxon (1557—1598 yillar) xon bo'lib turgan davrda Buxoroni Shayboniylar davlatining poytaxtiga aylantiradi. Mohir sarkarda va diplomat bo'lgan Abdullaxon mamlakatning tarqoqligini tugatishga va o'z yerlarini kengaptirishga intiladi. U bir qancha

²² O'zbekistn Milliy ensklopidiyasi . I tom . “dav milliy nashriyoti” T. 2000. 33. b.

harbiy yurishlar qilib, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Sapram, Qarshi, Marv, Hisor, Dashtn Qipchoq va boshqa yerlarni egallaydi. 1573 yilda Balx, so'ngra Hirot, Mashhad hamda boshqa shaharlar va viloyatlarni zabt etadi. Xiva xonligi ham o'zining mustaqilligini yo'qotib, Buxoro xonligiga bo'ysundiriladi. Abdullaxon o'z ta'sirni Sibir xonligiga ham yoyishga urinadi, ammo bu urinishlari zoe ketadi. Buxoro xonlik sifatida mustahkamlana boradi. Abdullaxon davrida Buxoro haqiqatdan ham O'rta Osiyoning siyosiy va madaniy markaziga aylana boradi²³. Shuningdek, Shoh Mahmud Churosning «Tarix» asarini tarjima qilgan O.F.Akimushkin asarga yozgan so'zboshisida; «...bu yerda (Yorkend xonligida) qo'shni Movarounnahrda gichalik markazlashgan davlat yo'q edi», deb fikr bildirgan²⁴. Sharqshunos olim V.V.Bartold esa «Abdullaxon II boshqaruvi kamdan-kam sodir bo'ladigan voqea bo'lib, garchi u o'z hokimiyatini qattiqqo'llik va harbiy kuch asosida barpo etgan bo'lsa-da, nafaqat butun Movarounnahrni, balki Xuroson va Xorazmni birlashtirib, kuchli davlat tuzdi», deya ta'kidlagan²⁵.

«Qasamiy ittifoq» shartnomasiga ko'ra 1579 yillarning oxirlarida Haqnazarxonga qarshi isyon ko'targan qozoq qabilalari bilan til biriktirib, Toshkentni egallagan Bobo sulton (Navro'z Ahmad Baroqxonnning o'g'li, Shayboniy sulton)ga qarshi jangda qozoq xoni Abdullaxon II ni qo'llab-quvvatlaganligi haqida ham «Abdullanoma» asarida to'xtalib o'tiladi²⁶. Biroq, Bobo sulton haqida yana Dashti qipchoq bilan bo'lgan diplomatic munosabatlarida keltirib o'tamiz.

²³ Barakaev "Buxoro tarixi" nash. "o'qituvchi". T. bet. 67.

²⁴ Shayx Muhammad Churas. Хроника. С. 169.

²⁵ Bartold V.V. Узбекские ханства / Соч. В 9 т. - Москва: 1963. Т. II (1). С. 269.

²⁶ Hofiz Tanish Buxoriy Abdullanoma 1 – kitob 347 b. Abuseyitova M.X. Казахское ханство во второй половине XVI в. С. 56.

I. 3. Abdullaxonning xonlik siyosiy hayotida amalgam oshirgan islohatlari.

Bu davrga kelib Buxoro bozori hunarmandchilik va savdoning ayrim turlariga xizmat qiladigan rastalarga bo'lingan edi: Abdullaxon zamonida qurilgan «Chorsu»" bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. «Chorsu» bozoridagi ko'chalarning bir-biri bilan kesishib o'tgan joyida gumbazli binolar qurilib, bu binolarda telpakfurushlar (toqi-telpakfurushon), zargarlar (toqi-zargaron), sarrof-sudxo'rlar (toqi-sarrafon) va boshqalar joylashgan edi. Shu yerdagi bozorning ustiga 1587- yilda Abdullaxon tim qurdirgan, ya'ni boshqa yurtlardan mol keltiruvchi savdogarlar uchun musofirxona soldirgan. Buxoroda ko'pdan - ko'p

saroylar, madrasalar, xonaqolar, masjidlar qurilgan. Masalan, 1570 yilda qurilgan Hoji Sa'diga qarashli Gavkushon romli karvopsaroy va 1560 yilda qurilgan Liysak maschitiga yaqin joydagi saroy ham ular boshqa yurtlardan kelgan savdogarlarga xizmat qilardi.

Shuningdek, Jome masjidi, Mir Arab, Abdullaxon, Modarixon, Gavkushon, Ko'kaldosh madrasalari, hammomi sarrofon bino qilindi. Shayboniylar hukuroligi davrida Buxoroning zodagon tabaqalari musiqaga qiziqar edilar. Bu yillarda o'zbek va tojik tilidagi poeziya ravnaq topadi. Diniy fanlar, musavvirlik, kalligrafiya, miniatyura san'ati qadrlanardi.

Abdullaxonning mamlakat ichki siyosatidagi davlat boshqaruv tizimini mustahkamlash ayniqsa pul islohati o'tkazish yo'lidagi faoliyati natijalari, keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan. U ko'plab turli inshootlar quddirgan. Hozirgacha u xalq orasida u yoki bu inshoot qurilishi Amir Temur yoki Abdullaxonga nisbatan beriladi²⁷.

Abdullaxon davrida Buxoro yaqindagi Sumiton (Jo'yibor) mavzesida Jo'ybor xojalaridan Abu Bakr Said (970 | 971 – yil vafot etgan) mozori atrofiga madrasa, masjid, xonaqoh va chorbog' 1558 – 1566 - yillarda, Buxoroda Abdullaxon madrasasi, hamom, Govkushon, Fathulla Qo'shbegi, mirakan Xoja Muhammad Porso, Yangi Chorsu 1569 – 1570 yillarda, tim (Abdullaxon timi), Karmana yaqinida Zarafshon daryosi ustiga ko'prik 1582 – yilda va boshqa inshootlar qurildi. Bunday inshootlar va karvonsaroylar Samarqand, Toshkent, Balx kabi bir qancha shaharlarda ham bunyod etilgan. Toshkentda ko'bobo Ko'kaldosh sharafiga Ko'kaldosh madrasasi qudiradi. Shu jumladan karvon yo'llariga sardobalar, rabotla, kanallar, suv ombarlari va Iskandar ko'prigi bilan mashhur bo'lgan G'ishtko'prik bunyod ettiradi²⁸.

²⁷ Maradjabova F. E. «К истории Ташкентского Восстания 1558 года» markaziy Osiyo tarixi: manbashunoslik va tarixshunoslik izlanishlar. I ilmiy to'plam T. 2009. 179. b.

²⁸ B. Ahmedov "Tarixdan saboqlar" "O'qituvchi" nash. T. 1994. 394 b.

Abdullaxon bandi – 16 asrning 80 – yillarida Abdullaxon tomonidan qurilgan suv omboridir. Bu inshoot qoldiqlari nurota tumani markazidan 65 km sharqda, Eski Oqchob qishlog'i yaqinidagi Beklarsoy darasida hozirgi kunda saqlanadi. 1957 – 1962 – yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarix va arxeologiya instituti olimlari tomonidan o'rganilgan. Abdullaxon bandining to'g'oni slans toshlardan qurilib, tosh palaxsalari suviga chidamli maxsus ganch qorishmasi – qir bilan berkitilgan. To'g'onning uzani asosida 73 m, yuqorisida 85 m, balandligi 14,5 m bo'lgan. Bunda suv bosimi hamda uning ag'daruvchi kuchi hisobga olingan holda to'g'on asosining qalinligi 15,3 m, ustki qismi 4,5 m qilib zinapoya shaklida qilib qurilgan. To'g'on oldida hosil bo'lgan suv omborining uzunligi 1,5 km, eni 75 – 125 m gacha bo'lgan. Abdullaxon bandi taxminan 1,2 mln. Kubometr suv to'plangan. Inshootdan quyida joylashgan kamar, oqchob, O'rganjiy, Ravot, Jilon – tamg'ali va Soykechar qishloqlari atrofi sug'orilib obod etilgan. XVI asrning ana shu qishloqlar hududi taxminan 1,2 ming ga yer maydoni o'zlashtirilgan²⁹.

Abdullaxon madrasasi Buxorodagi Qo'sh madrasa ansambilining shimoliy qismida joylashgan me'moriy yodgorlikdir. Bu madrasaning me'mori noma'lum bo'lib, Abdullaxon buyrug'i bilan 1588 – 1590 yillarda qurilgan. Tuzilishi odatdagi madrasalardan ancha farq qiladi. Hovli atrofini ikki yonli hujralar o'rab turibdi, shuningdek har ikki tomonida baland peshtoq joylashgan. Peshtoqlar orqali ichki xonalar va honaqohga o'tiladi. Bu madrasada Buxoro me'morchiligining XVI asrda erishgan barcha ijodiy yutuqlarini namoyish etadi.

Abdullaxon timi Buxorodagi eng katta usti berk savdo rastasi bo'lib u Abdullaxon buyrug'I bilan 1577 – yilda barpo etiladi. Bu timning asosi murabba tarxli (39 x 42 m), 3 tomoni berk, bosh tarzidagi pishtoq orqali kiriladi. Buxorodagi savdo rastalarining chorus – toq binolari ichida eng kattasi va shakli shamoyili jihatdan ancha murakkab va xushbichim hisoblanadi. Shuningdek bu majmualar bi qancha tamirlangan.

Rassom Shayhzoda Mahmud, Abdulla kabilar miniatyurachi-kolaigraflar

²⁹ O'zbekiston Milliy ensklopidiyasi. I tom. "dav milliy nashriyoti" T. 2000. 33b.

maktabining ko'ziga ko'ringan rahbarlari edilar. XVI asr Buxoro naqqoshlik maktabi uzoq davr qo'shni mamlakatlarning badiiy san'atiga katta ta'sir ko'rsatgan¹¹. Masalan, XVI asr boshlarida Turkiyaga borgan mashhur Bobo naqqosh Turkiyada naqqoshlik maktabini tashkil qilgan edi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Shayboniylar davrida ham ko'rkamligi jihatidan temuriylar davrida qurilgan binolardan qolishmaydigan binolar qurilgan. Buxoro yanada ko'rkamlashgan, ayniqsa uning tashqi qiyofasi go'zallashgan. U tub ma'noda qayta qurilgan. Shahar rejasi o'zgargan, yirik ansambllar paydo bo'lganki, bular shahar qiyofasiga yana ham obod ko'rkamlilik va joziba baxsh etgan. Usha davr arxitekturasiga xos qurilish inshootlarining aksariyati hozirgacha saqlanib qolgan.

XVI asrga kelib Buxoroning siyosiy roli kuchayishi bilan Buxoro devorini qayta qurish, shahar chegarasini bir oz kengaytirish ehtiyoji tug'iladi. Shaharda hunarmandchilik va savdoni yanada rivojlantirishga imkon beradigan chora-tadbirlar ko'riladi. Shahar ichida savdo rastalari va hunarmandchilik do'konlari uchun keng joylar bunyod etiladi.

Bobur avlodlarining saroylarida adabiyotga qiziqish juda ham tez avj oldi va ular O'rta Osiyo adabiyotining namoyandalari uzviy aloqa bog'lab turdilar. Shunisi qiziqki, O'rta Osiyo shoirlariniig Garbiy Yevropa kutubxonalariga borib qolgan qo'lyozmalarinnng ko'p qismi Hindistondan, hindlarning ko'pgina qo'lyozmalarni esa O'rta Osiyodan topgan. Bulardan «Boburnoma» qo'lyozmasi diqqatga sazovordir. Bu qo'lyozma eski o'zbek tilida yozilgan bo'lib, unda Hindiston to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

Hind antologiyalarida Hindistonda keng tanilgan O'rta Osiyo

shoirlarining nomlari tez-tez tilga olinadi, hind shoirlari va tarixchilari ham O'rta Osiyo xalqlari orasida keng poralgan. Masalan: «Tarixiy farishta», «Taboqati Akbarshohiy», «Akbarнома», «Jahongirнома», «Iqbolnomai Jahongir», «Humoyunnoma» kabi asarlar va boshqa kitoblar keng tarqalgan edi³⁰. Bu asarlarda xind xalqining XVI—XVIII asrlardagi tarixi, ekonomikasi va madaniyati to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bor, xuddi o'sha adabiy aloqa tufayli XVI asrning ikkinchi yarmida va XVII asr boshlarida Hindistonda fors tilida ijod etgan mashhur shoir mutafakkir olim Mirza Abduqodir Bedil O'rta Osiyo adabiyotiga samarali ta'sir etdi, uning asarlari keng xalq ommasiga tarqaldi. XIX asrning oxirida va XX asrning boshlarida buyuk o'zbek demokrat shoiri Furqat Hindistonda uch yil yashadi. Furqat Hindistonda hind xalqlari tillarni, shu jumladan o'rdu tilini o'rgandi. Furqat Hindiston to'g'risida boy adabiy asarlar yozib qoldirdi. Furqat Hindistondan yuborgan xatlarida hind shaharlari, hind xalqining urf-odatlarini, san'ati, madaniyati to'g'risida batafsil ma'lumot beradi. Furqat hind xalqining ingliz mustamlakachilariga qarshi olib borgan mardona kurashini alohida ta'kidlab o'tadi³¹.

O'rta Osiyo xalqlari bilan savdo-iqtisodiy va madaniy aloqa qilish bilan cheklanib qolmadi, U rus xalqi bilan ham xuddi ana shunday qizg'in aloqa bog'ladi. Mashhur rus tarixchisi N. M. Karamzin ruslarning Hindiston to'g'risidagi, hindlarning Rossiya to'g'risidagi bilimlarini oshirishga ko'p jihatdan yordam bergan rus sayyohlarining xizmatlari haqida gapirgan edi. Rus savdogarlari O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo qilibgina qolmadi, ular Hindistonga ham o'z tovarlarini olib borib sotdi.

XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmfan va madaniyat ham bir qator rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni shu jumladan Buxoroda fan va madaniyat gullab – yashnadi. Abdullaxon hukumronligi davrida shahar atrofida taxminan (6 – 7) farsax masofada joylashgan Sumiton (Joybor) qishlog'ini ham shaharga qo'shib olib, uning janubiy – g'arbiy tomonida yangi

³⁰ B Ahmedov "Tarixdan saboqlar " "O'qituvchi" nash. T. 1994. 395 b.

³¹ Osha adabiyotidan 33b.

devor bunyod ettiradi Shuningdek Sumitonda, Jo'ybor xojalarning bobokaloni Abubakr Sa'd maqbarasi atrofida masjid, madrasa va xonaqoh bunyod ettiradi. Ayniqsa bu me'moriy obidalar atrofida ajoyib bog' – rog'lar ham bunyod ettiradi. Sumitondan to shahar markazigacha keng xiyobon chiqarilib, uning atrofiga chiroyli daraxtlar bunyod ettiradi. "Abdullanoma" asarida bu obida haqida: "Tangri taolaning qo'llab – quvvatlashi bilan xonlik kursisi va jahondorlik mansabi sohibquron hazratlariga qaror topib, kunlar saxni ul hazratning adolat nurlari va marhamat asarlari bilan bezalgach, o'zidan keyin nodir inshoatlar, yaxshi nom va estaliklar qoldirishni istadi... xalq muqtadosining (xoja Muhammad Islom) ulug' bobolari imom Abubakt Sa'dning nurlari fayzli mozori yonida xonaqoh, masjid, madrasa va boshqa oily binolar qurib, atrofini chiroyli bog' – rog'lar bilan bezashni xoxlagan va uni buyurgan. Shuningdek tarixiy manbalarga qaraydigan bo'lsak o'sha davr zamonida muhandislar, me'morlar juda qobiliyatli va masulyatli bo'lganlar. "Sharafnoma" shohiy" asarining muallifining ma'lumotiga ko'ra, Sumiton shahri qo'shib olinishi va uni obod qilish ishlari, Buxoroning ham obod bo'lishi qariyb o'n yil davomida (1559 - 1568) bajarilgan. Shuningdek Abdullaxon yana bir qancha obidalar bunyod etishga muvofiq bo'ladi. Shu jumladan Fatxulla qo'shbegi, xoja Muhammad Porso madrasasi, yangi Chorsu 1570 – yil, Karmana yaqinidagi Zarafshon ustiga ko'pri 1582 – yil qurilgan³². Ularning oddiy xalqqa juda ham foydasi katta bo'lgan, shuningdek aholi uchun doimiy foydalanadigan tayanch joylar bo'lib qolgan. Darhaqiqat Abdullaxon timi yopiq bozor bo'lib u nafaqat Movoraunnahr, balki butun jahonda ham mashhur bo'lgan. Samarqand, Toshkent, Balxda ham ana shuningdek masjid madrasa, xonaqoh, va bozorlar barpo etilgan. Ayni bir paytda Abdullaxon suv inshoatlarini ham barpo ettirgan. Shular jumlasiga Vaxsh, Zarafshon, jayxundan nahrlar chiqarilib, ko'plab qishloq va shaharlar obod etildi.

"Abdullanoma" asarida keltirib o'tilishicha Buxoro, Samarqand va Balx shaharlarini, balki Toshkent, Termz , Ko'lob, Hirot shaharlari haqida ham

³²B Ahmedov "Tarixdan saboqlar" "O'qituvchi" nash. T. 1994. 394. b.

e'tiborga sazovar ma'lumotlar keltirilgan.

Xonlikning ijtimoiy istisodiy ahvoli borasida keltirilgan ma'lumotlar orasida “iqtoyi”, “suyurg’ol”, “tanho”, va “jogir” ulus tartibi hamda unig ijtimoiy – siyosiy hayotidagi ahamiyati va o’rni aholidan yig’iladigan turli – tuman soliq va majburiyatlar: xiroj – mol mulkdan olinadiga soliq, ixrijot, tag’or, ulufa, qo’nalg’a, beggar, madadi lashkar, boj, tamg’a, tansuqot, tuhfa, (savg’a, tortiq, hadya) va boshqalar xalqning asosiy majburiyatlardir. Alohida ta’kidlab o’tish joizki, hukumatning qo’shni hududlarga yurish qilish ham feodal jamiyatda muhim o’rin tutgan. Jizzax, Nasaf, hitori Shodmon, va Jayhunning so’l qirg’oqlaridagi viloyatlardagi yerlarga mahalliy aholini safarbar qilish yo’li bilan atrofidagi hududlarni o’zlashtirgan.

II. BOB. Abdullaxonning siyosiy hayotda diplomatiyaning o’rni.

II. 1. Abaullaxon va Akbarshoh xonlik o’rtasidagi diplomatik munosabatlar.

Buxoro taxtini Abdullaxon Hindiston taxtini esa Akbarshoh egallaganlaridan keyin o'z davlatlarini mustahkamlashga, shu o'rinda mustaqil va yarim mustaqil xon va knyazliklarni bo'ysundirishga, yangidan yangi o'lkalarni bosib olishga kirishdi. Abdullaxon o'z davri ning qudratli hukumdori sifatida xalq ko'zida gavalandi. Shuningdik Abdullaxon davlatini mustahkamlash uchun bir qancha o'lkalarga zafarli yurishlar olib bordi va o'lkan hududlarni qo'lga kiritdi.

1573 – yil Balx va Hirotni, 1574 – yil Shahrisabiz, Qarshi va Hisorni qo'lga kiritdi. Ayni shu paytda Hindiston hukumdori Akbar Malva, Gondvan, Chitor, Gujaratni bosib oldi. 1576 – yil Abdullaxon Samarqand va Toshkentni, Akbar esa Bengaliyani bosib oldi. 1581 – yilda Abdullaxon qipchoq xonlari qozoq Sigay (Shigay) va uning o'g'li Tavakkulni avvalqurol kuchi bilan so'ng katta hadiya suyurg'ol berish bilan o'ziga qaramqilib oldi³³. Abdullaxon kuchli bilim sohibi va teran fikirlaydigan buyuk shaxs bo'lgan deya olishimiz mumkin. Negaki u butun ilmiy salohiyati bilan davlatni qudratini kengaytira olgan. Abdullaxon hududini kengaytirishga davom etayotgan bir paytda u e'tiborini Qandahorda qaratadi. Lekin bu paytda Akbarning qudrati Abdullaxonning rejalariga imkon bermaydi. Natijada Abdullaxon Akbarning ittifoqiga suyanib safaviylarning yerlarini bosib olishga harakat qila boshlaydi. Natijada har ikkala davlat o'rtasida diplomatic munosabatlarning kuchayishiga olib keladi. Hid tarixchisi Ramish Chandira Varma XVI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo bilan Hindiston o'rtasidagi diplomatic munosabatlarni ikki davrga bo'lib tushintiradi. 1) 1555 – 1589 yilllar Abdullaxonning Hindistonga agresiv siyosat olib borganligi; 2) 1588 – yildan boshlab Akbarning o'limiga qadar (1605 bo'lib, Hindistonning O'rta Osiyoga hisbatan zo'ravonlik siyosatini butunlay yoritib berishga harakat qiladi³⁴. Abdullaxon Eron hukumdori Abbas I ga qarshi

³³ Nizomiddinov I "O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari" "O'zbekiston SSR Davlat nash". T 1961 b. 12.

³⁴ Nizomiddinov I "O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari" "O'zbekiston SSR Davlat nash". T 1961 b 13

kurashish uchun ittifoqi bo'lgan davlat Hindiston bilan diplomatik munosabatlari 1572 – yil Dehliga Oltamishni elchi qilib yuborishidan boshlanadi. Elchi Abdullaxonning har ikkala davlat o'rtasida davom etib kelayotgan do'stlik aloqalarining kuchaytirish haqidagi maktubini topshiradi. Akbarshoh Oltamishni Gujaratni bosib olgandan keyin qabul qilga tarixchi Varmaning ma'lumotiga ko'ra elchi Akbarshohga safaviylarning yerlarini bo'lib olishni ham taklif qilgan va Akbarshoh buni sir saqlagan deydi. Biroq bu taklif bo'lmagan degan fikrlarni olimlarimiz quyidagi sabab orqali aniqlik kiritadi: 1) Abdullaxon hali Movoraunnahr va Balxni o'ziga butkul bo'ysundirmaganligini; 2) o'sha davrda Eronda Texmasp poddshohlik qilib turgan vaqtda (1524 – 1576) taxt uchun o'zoro kurash kuchaymagan. Shuning uchun Oltamish elchiligi hali safaviylarning yerlarini bo'lib olish yuzasidan taklif qilishi ehtimoldan uzoq edi. Chunki elchi olib brogan maktubda Abdullaxon hind imperatorining yordamiga suyanib, Turonda o'z dushmanlari ustidan g'alaba qozonishini aytgan ed³⁵. Akbarshoh elchi orqali Abdullaxon nomiga yuborgan maktubidano'stlik munosabatlarini o'rnatishga rozi ekanligini bildirdi.

Abdullaxon elchisi Hindistondan o'zyurtiga qytish arafasida Badaxshonda hokimyat uchun o'zoro kurash boshlanganligining daragi keladi. Bunda Abdullaxonning qo'li borligini Akbarshoh gumon qiladi. 1577 – yilda Abdullaxonning ikkinchi elchi Abdurahim Hindistonga keladi. Elchi O'rta Osiyobila Hindiston o'rtasida Eronni bo'lib olishni taklif qiladi. Natijada Akbarshoh o'z elchisi Mirza Fulod boshchiligida Abdullaxon saroyiga javob elchilarini jo'natadi. Hind elchisi Eroning musulmon davlati ekanligini eslatib, Akbarshoh rozi emasligini aytishi kerak edi. Shu jumladan elchi zimmasiga ikkinchi vazifa Abdullaxonning Badaxshon davlatiga bo'lgan munosabatini aniqlash va uni qurolli kuch bilan emas diplomatic munosabat orqali hal etish choralarini ko'rishni topshirgan ed³⁶. Abdullaxon 1583 – 1584 – yillarda

³⁵ Nizomiddinov I "O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari" "O'zbekiston SSR Davlat nash". T 1961 b 14

³⁶ Nizomiddinov "O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari". "O'zb SSR dav nash" . T. 1961. b. 15

Badaxshonga hujum qilib bosib oldi va Badaxshon hokimi Mirza Sulaymon va uning nabirasi Shohruh Akbardan yordam so'rab Dehliga boradi. Abdullaxon Mirquraysh boshchiligida elchini Hindistonda Akbarshoh huzuriga jo'natadi va unda Badaxshoning bosib olinish sabablarini tushuntiradi. Biroq nemis olimi G. Noer o'rganib chiqqan hindmanbalarida Mirqurayish elchisi Hindistonga hind sarkardasi Todar Malning Haybardagi afg'onqabilalari ustidan qilgan g'alabasidan so'ng hind qo'shinlarining o'zbek yerlariga ham bostirib kelishlaridan xavfsiranib yuborgan elchiligid³⁷.aslida maqsad Eronga qarshi kurash Akbarshoh bilan kelishish edi. Mirqurayish elchiligi O'rta Osiyo bilan Hindiston o'rtaidagi munosabatlarning uzoq muddat to'xtab qolishiga sabab – O'rta Osiyoda imperator Akbarning islom dini qoidalaridan vozkechganligi haqida noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalishi va o'zbek xoning ichki kurashlar bilan shug'ullanib qolganligi, deb ko'rsatadi. Abdullaxon tomonidan Badaxshonning bosib olinishi guyo Shohruhning o'zboshimchalik harakatlaridan kelib chiqqan emish. “Tarixi Akbarshoh” asarida esa Mirqurayishning elchiligi saroyga kelmasdan oldin, Turondan Akbarni xursand qilish uchun eng yaxshi o'ynoqi kabutarlar bilan kabutar o'ynatuvchi kabutarbozlar kelishgan. “Shu kuni – deb yozadi avtor, - Nazarbiy va uning bolalari Qambarbiy, Shidibiy va boqibiylar qudsi (muqaddas) ostonasiga sajda qilib, pishonalarini yorqin qildilar. Turon elchilari shu vaqt Sind daryosida yotgan bo'lib, Zobuliston tuprog'ida edilar. Kutal, ot va tuyalar katta qiyinchilik bilan daryodan o'tdilar³⁸”.

Mirqurayish – sayidlar urug'ining eng yaxshisi ot, tuya, yurg'a xachirlar, yaxshi pustin, teri va boshqanafis molar bilan oily dargohga dilomuz do'stlik haqidagi noma bilan yuborildi.”Tarixi Akbarshoh” da keltirilishicha Akbarshoh kasalligi sababli uzoq vaqt Mirqurayishelchisini qabul qilmagan, so'ngra bu hol elchilarni tashvishga solgach, ular Akbarni Akbar yangisolgan 21 – devonxonada qabul qilganligi haqida bayon qiladi. Shuningdik xisravon ziyofat berildi deb

³⁷ Nizomiddinov “O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari”. “O'zb SSR dav nash” . T. 1961. b. 16

³⁸ Nizomiddinov “O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari”. “O'zb SSR dav nash” . T. 1961. b. 17

aytagi³⁹. Haqiqatdan Mirqurayish elchiligi uzoq vaqt davom etgan sayohatdir. Tarixchi Uminyakovning fikricha elchilarning uzoq muddat davomida qabul qilinmaganligi bu albatta Akbarshoh qudratining qay darajada yuqoriligini ko'rsatish edi deb keltirib o'tadi. Buning sababi o'sh paytda imperiyada Kashmirni egallash uchun kurash bormoqda edi. Kashmir bo'ysundirilgandan keyin Mirqurayish elchisiga o'z vataniga qaytishga ruxsat berilganligini aytib o'tadi.

1586 – yilning avgust oyida Mirqurayish boshliq elchilarning Hindistondan o'z yurtlariga Akbar tomonidan Abdullaxon huzuriga yuborilgan HakimHamom va Sadr Jahon elchiligi bilanbirgalikda qaytib keladilar. Hakim Hamom davlat ishlari bilan kelgan elchi bo'lsa, Sadr Jahon Abdullaxonning otasining o'limi munosabati bilan ta'ziya uchun yuborilgan Akbarshoh elchisi edi.

1587 – yilning fevralida elchilar Kobuldan Hindiston elchilari bilan qaytib kelayotganligi haqida xabar Abdullaxonga yetib keladi. Abdullaxon elchilarning kelishi bilanoq ularni o'z mansablariga mos ravishda saroydan o'rinlar ajratishni amaldorlariga buyuradi. Undan tashqari Kobul hokimiga elchilarni ko'p ushlab turmasligi haqida maktub yuboradi. Mirqurayish bu buyruqni eshitgach u, 1587 – yilning oyida darhol Balxga jo'naydi va u yerdan sentyabrda hind elchilari bilan birga Abdullaxon saroyiga keladi. Elchilarni Hoji Muhammad, Haydar Muhammad Munshiylar tantanali qabul qiladilar. Ertasi kuni esa elchilar sharafiga Sulton Husayin Mirzo madrasasida katta bazm bo'ladi. Unda Abdullaxonning amaldor va viloyat noiblari ham mansablariga qarab o'rin egallaydilar, shu jumladan elchilar ham. Bazmda varaqi tun kiygan, qilichlari marvarid va boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan maxsus xizmatchilarxizmat qildi. Abdullaxon huzurida bo'lgan hind elchilari Hakim Hamom va Sadr Jahonlar o'z urf – odatlariga mos hukumdorga iltifot ko'rsatadi. Ya'ni Hakim Hamom xon oldiga kelib, kaftini yerga tekkizib, tepaga ko'taradi. Bu holatni yigirma yitti marta takrorlaydi va Abdullaxon taxti yaqiniga tizza

³⁹ Nizomiddinov "O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari". "O'zb SSR dav nash" . T. 1961. b. 18

bilan yurib kelib uning qo'lidan o'padi va Akbarshohdan keltirgan hadiya va tortiqlarini taqdim etadi. Elchilar ertasi kuni Abdulmo'min huzurida bo'ladi. Abdullaxon buyrug'i bilan elchilar har kuni noib va amirlar huzurida bolishni buyuradi o'zi esa Hirot uhun kurashga jo'nadi. Elchilar Mirqurqyish boshchligida Buxoroga jo'naydi, ularni Nuriddin Muhammad yaxshi kutib oladi. Chunki Abdullaxon elchilarga yaxshi qarab turishni unga buyurgan edi⁴⁰.

Hind elchisi o'zi bilan Akbarshohning Abdullaxonga maxsus yo'llagan maktubni keltiradi. Maktubda Abdullaxonning o'z mamlakatini idora qilishda boshqa mamlakatlar bilan o'rnatilgan do'stlik munosabatlarida uning tutgan o'rni, Abdullaxonning Akbarshohni islom diniga nisbatan tutgan pozitsiyasini qoralash to'g'risida yozilgandi⁴¹. Akbarshoh maktubida u chin musulmonligi, islom dini qoidalarini buzulishiga urunmaganligi, faqat ulomolar hal eta olmagan masalalarni haletishga urunganini ta'kidlaydi. So'ngra Eron masalasiga to'xtalib, hozirda Eron shohiga faqatgina uning amaldorlarigina bo'ysunmay qolmay, balki turk sultoni ham fursatdan foydalanib ko'p eron yerlarini bosib olmoqda. Shuning uchun eron shohi mushkul holatga tushgan bir paytda unga yordam qo'lini cho'zishni o'zining vazifasideb his qiladi. Maktubda Badaxshonning bosib olinishi haqida so'z yuritilmagan. De mak Hindiston hukumdori Abdullaxon bilan munosabatini yomon bo'lishini xoxlamaydi. Undan tashqari maktubda Eronni bo'lib olish haqida aniq fikr aytmagam bo'sa ham, lekin Eron davlatlarining bir qismini bosib olishni xoxlagan va shuning uchun Abdullaxon bilan ittifoqchiligini davom ettirga. Bu bilan Akbarshoh harbiy va savdo nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega bo'lgan Qandahor shahrini o'z davlatiga qo'shib olmoqchi va Akbarshoh imperiyasining sharqiy rayonlariga Abdullaxonning hujumini oldini olishni va Eronga qarshi urushda guyo kofir – shiyalarga qarshi kurashda qatnashgan bo'lib, o'zini haqiqiy islom taqvodori sifatida ko'rsatmoqchi edi⁴².

⁴⁰ Nizomiddinov "O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari". "O'zb SSR dav nash". T. 1961. b. 19. b.

⁴¹ Mirkomil Sodiqov "Buxoro amirligida elchilik munosabatlari" Moziydan Sado jurnal 2002. 4 to'plam 26 b.

⁴² Nizomiddinov "O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari". "O'zb SSR dav nash". T. 1961. b. 19- 20

Hind yozuvchisi Ramesh Varmaning fikricha Abdullaxon bilan Akbarshoh o'rtasida Eronni bo'lib olish to'g'risiga o'zaroshartnomasi bo'lgan ammo uni sir saqlashgan deydi. Bunday deyishiga sabab Abdulmo'minning Turkiya sultoniga yozgan maktubida va Imomqulixonning imperator Jahongirga yozgan xati bilan tasdiqlaydi⁴³.

1580 – yil Hakim Hamom O'rta Osiyodan Hindistonga qaytadi. U Abdullaxonning xati bilan birga Akbarshoh saroyiga tayinlangan o'zbek elchlari sifatida Ahmad Ali otaliq va Mirsadr Jahonlar boradilar. Abdullaxon Akbarshoh nomiga yo'llagan xatida unga minnatdorchilik bildiradi, go'yo Akbarning iltifoti bilan Abdullaxon Hirot va Xurosonni zabt etishga muvofiq bo'lgan.

Shuningdik Abdullaxon keksayib qolganligi va unga jahongashtalik ishlardan charchab qolganligi, buning ustiga uning o'g'li Abdulmo'minning o'zboshimcha harakatlari uni cho'chitmoqda edi. Bundan tashqari eron shohi Abbos Xuroson va Amudaryogacha bo'lgan yerlarni bosib olishga astoydil kirishgan edi. Shu maqsadda Abbos Turkiya bilan 1590 – yil sulh tuzishga muvofiq bo'lgan edi. Shu o'rinda Abbos Akbar bilan ham ittifoq tuzishga harakat qiladi. Bu holat albatta Abdullaxonni tashvishga solishi tabiiy, negaki Badaxshonda Muhammad Zamon degan shaxs o'zini Shohruhning o'g'li deb e'lon qilgan edi. Undan tashqari u Akbarga ham ittifoq bo'lish to'g'risida maktub yo'llagandi. Bir yil o'tgandan so'ng Muhammad Zamon Abdullaxonning o'g'li Abdulmo'minni mag'lubiyatga uchratdi va Abdulmo'min ham Hindistonga elchi jo'natdi, biroq elchi Jelunga kelganda bevaqt vafot etgandi. Abdulmo'minning elchisi said Muhammad Sodiq Ali “Akbarnoma” asariga keltirilishicha Akbarning buyrug'I bilan bo'g'ib o'ldirilgan deyiladi. Lekin buni isbotlovchi fakt yo'q⁴⁴.

Abdullaxonning Mavloviy Husayin boshliq elchilari Akbar saroyiga keladi. Bu vaqtda Akbarshohning uzoq vaqt Panjobda qolishi Abdullaxonni xavotirga solib qo'ygan edi. Buning ustiga Abdulmo'minning qaltis hatti – harakatlari Hindiston bilan munosabatining keskinlashiga olib kelmoqda edi.

⁴³ Nizomiddinov “O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari”. “O'zb SSR dav nash” . T. 1961. b. 20.

⁴⁴ Nizomiddinov “O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari”. “O'zb SSR dav nash” . T. 1961. b. 21.

Shuning uchun Mavloviy Husayin Abdulmo'minning nojo'ya hatti – harakatlari uchun uzr so'rab, Akbarni Eron hukumdorining agressev hatti harakati uchun unga qarshi ittifoq bo'lishga chaqirdi. Keyin esa Akbarshohning Panjobga ko'p muddat qolganidan o'zbekxoni shubhalanayotgani haqida to'xtalib o'tdi. Mavloviy Husayin 1592 – yil Lahor shahrida vafot etganligi tufayli Abdullaxon 1594 – yil Mulk Saloh Buxoriy rahbarligida elchilarni Akbarning saroyiga jo'natadi.

O'zbek xonligining zaiflashib borayotganini sezgan hind davlati hududidagi mo'g'ul imperiyasi Zamindovar va Garmsir yerlarini o'zbeklar qo'lidan tortib oladi. Shu o'rinda Qandahor shahri ham boburiylar sulolasining mulki tasrufiga o'tadi. Akbarning davlati endi Abdullaxon davlatida qarshi muvofaqiyatli kutash olib borishi, Badaxshin, Balx va boshqa o'zbek yerlarini bosib olish imkoniyati katta edi. Shu sababli Akbar o'z o'g'illari va saroy amaldorlari bilan bir qancha maslahatlashdi, ammo ular biror ijobiy fikrga kelolmadi. O'rta Osiyoda uzoq vaqt urush olib borgandan ko'ra Hindiston Dekanga qarshi kurash olib borishni afzal ko'rardilar, natijada 1596 – yildan boshlab Dekan shahriga qarshi hujum boshladilar. Hindiston bilan O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi do'stlik munosabati saqlanib qoldi. Abdullaxon 1597 – yilning 9 sentyabrida Akbarshoh davlatidan kelgan elchilar xo'ja Ashraf va Sulton Husayinlarni tantanali qabul qiladi. Elchilar o'zlari bilan birga Akbarshohning taxtini keltiradi, bu xatda: 1) akbarshoh davlatining o'zbek davlatiga hech qachon yomon niyatda bo'lmaganligi; 2) Shoh Abbos I Akbarshoh saroyiga o'z elchilari Yodgor sulton Shamluni Abdullaxon davlatiga qarshi kurash yo'lida Eron – Hindiston ittifoqini tuzish uchun yuborganda, Akbarshoh davlatining bunga rozi bo'lmaganini, Abdulmo'minni Akbarshoh o'z jiyani deb bilgani, uni avf etganligi haqida xatda keltiriladi. Shu o'rinda Qandahorni o'zbeklar Eron shahri deb, unga hujum qilishlarining oldini olish uchun imperiyasi hududiga qo'shib olganligi haqida Akbarshoh keltirib o'tadi.

Har ikkala davlat o'zaro do'stlik munosabatlarini saqlab qolishdan manfaatdor edi. Akbarshoh imperiyasi Abdullaxon uchun Eron bosqinchilariga

qarshi kurashda betaraf pozitsiyada turishi ahamiyatli bo'lsa, mo'g'ul imperiyasi uchun o'zbek xonligi bilan do'st bo'lishi Hindistonning hali tobe bo'lmagan o'lkalarni bosib olishni muvofaqiyatli tamomlashda imperiyaning sharqiy o'kalarda osoyishtalik hukm surib turishi uchun zarur edi.

Hind elchilari Sulton Husayin va xo'ja Ashraflar hindistonga qaytishda ularni abdullaxon buyrug'I bilan Mirqurayish kuzatib boradi.

Abdullaxonning o'g'li Abdulmo'min 1599 – yil o'lgandan keyin shayboniylar sulolasidan xon taxtini egallovchi kishi qolmagan edi. Shu o'rinda xon chingiziylardan bo'lishi shart edi.

Buyuk Bobur sulolasidan bo'lgan Hindiston imperatori Akbar (1556—1605 yillar) Buxoro xonligi bilan do'stona munosabatni mustahkamlash maqsadida Buxoroga o'z elchisini yubordi. Elchi o'zbek xoni Abdullaxonga sovg'a va xat olib kelda. Abdullaxon hind elchisini tantanali suratda qabul qildi va 1572 yilda vataniga qaytib ketayotganda Hindistonga Buxoro xonligining elchisini qo'shib yubordi⁴⁵. XVI asrning Ikkinchi yarmida Buxoro xonligi bilan Hindiston davlati bir-birlariga tez-tez elchi yuborib turdi. Masalan, 1577, 1586,-1591 yillarda Buxorodan Hindistonga elchi yuborildi. Ularni yuborishdan maqsad ikki davlat o'rtasidagi har qanday janjalli masalalarni bartaraf qilish va do'stona munosabatlar o'rnatish, iqtisodiy va madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish edi. Buxoro elchilari Hindistonga bir necha bor kelib ketgandan keyin, Hindiston imperatori Akbar 1577 yilda Buxoro xoni Abdullaxon huzuriga Mirza Po'lat va 1586 yilda Hakim Xumom boshchiligidagi o'z elchilarini yubordi. Bu voqeaning guvohi bo'lgan Fransua Bernening xabar berishicha, 1658 yilda Hindiston podshosi Avroldzebning taxtga chiqishi munosabati bilan uni tabriklash uchun Buxoro xoni Hindistonga elchi yubordi. Bu elchilar orasida Samarqand va Balx hokimlarining elchilari ham bor edi. Elchilar hind davlati poytaxti Dehlida to'rt oydan oshiqroq bo'ldilar. «Elchilar, — deydi Fransua Berne, — zangori toshlardan yasalgan, saralangan sandiqcha, juni uzun tuya, juda

⁴⁵ Ermatov "O'rta Osiyo Rossiya va Hindiston xalqlari o'rtasidagi do'stona aloqalar tarixi" "O' SSR Dav nash" T. 1959. 23. b.

ham ajoyib otlar, bir necha tuyada yuk, ho‘l va quruq meva olib keldilar. Dehlidan Buxoro elchilarini katta izzat-ehtirom bilan kuzatadilar, podshoh hamma amirlarning ishtirokida elchilarning har biriga qimmat baho •sarps tuhfa qildi va ularning har biri uyiga sakkiz ming rupiyadan pul olib borishni topshirdi. Bundan tashqari, podshoh elchilardan xonlarga atab chiroyli sarpo, mohirlik bilan tikilgan juda ko‘p qimmat baho va nafis zarbob to‘nlar, tilla va kumush tasmali juda nozik shoyi gazlamalar, bir nechta gilam hamda qimmat baho toshlar bilan bezatilgan ikkita xanjar berib yubordi»⁴⁶.

Hindistok bilan O‘rta Osiyo o‘rtasidagi iqtisodiy Boburiylar imperiyasi davrida ayniqsa jonlanib ketdi. Hindiston imperatori Aurangzeb 1680 yilda Buxoroga o‘z elchisini yubordi. Bu elchi Buxoro xoni Subxonqulixonga Aurangzebdan maktub keltirdi. Subxonqulixon hind elchisini tantanali suratda qabul «ildi va undan'imperator Aurangzeb nomiga javob maktubi yozib yubordi. Usha vaqtlarda Hindistondan O‘rta Osiyoga qimmat baho toshlar, dur, uqa bilan tikilgan kimxob va boshqa qimmatli materiallar, uqa, bo‘yoqlar, atrupa, Kashmir ro‘moli, choy va hokazolar olib kelinar, Buxorodan esa Hindistonga asosan ipakdan tikilgan dasturxonlar, ipak kashtalar, movut, ip gazlama, gilam va mo‘yna olib borilardi. XVII asriing ikkinchn yarmida Hindistonda bo‘lgan sayyoh Fraisua Berns shunday deb yozgan edi: «Hindistonda juda katta meva bozori bor. Bozorda do‘konlar ko‘p bo‘lib, yoz vaqtida, bu do‘konlarda Erondan, Balxdan, Buxoro va Samarqanddan keltirilgan quruq mevalar ko‘p sotilardi. Hipdistonda otga ihtiyoj katta edi. Ma’lumki, Hindiston Buxoro xonligidan har yili 25 mingdan oshiq ot sotib olardi.

Hind savdogarlari Buxoroga bir oz vaqtgagina kelib qolmasdan, balki Buxoro, Samarqand va Xivada uzoq vaqt ham yashab qolardilar. XVII—XVIII

⁴⁶ Ermatov "O‘rta Osiyo Rossiya va Hindiston xalqlari o‘rtasidagi do‘stona aloqalar tarixi" "O‘ SSR Dav nash" T. 1959. 23 – 24 b.

⁴⁶ Ermatov "O‘rta Osiyo Rossiya va Hindiston xalqlari o‘rtasidagi do‘stona aloqalar tarixi" "O‘ SSR Dav nash" T. 1959. 24 - 25. b.

asrlarda Buxoroda hindlar yashaydigan bir mahalla bo'lib, o'z oqsoqollari tomonidan boshqarilgan. O'rta Osiyo, shu jumladan Namangan, Andnjon, Buxoro va Samarqandda yashaydigan hindlar soni XIX asrning birinchi yarmida yana ham oshib ketdi. 1820 yillarda Buxoroda 250-taga yaqin hind yashardi. Bularning 200 tasi Shikarpurda, 500 tasi Panjobning Sind, Multon va boshqa oblastlarida edi⁴⁷.

Abdullaxonning Muhammad Nazarboy elchiligi yuzasidan Hindiston hikumdoriga yuborgan maktubi quyidagicha: Quvonchlik davrimizning saodat va iqboliga zebu ziynat muqarrar bo'lsin! Shod-xurram ayyomimiz yuksalish va shon-shavkatga muyassar bo'lsin!

Adolat va saodat bo'stoni, hashamat va baxtiyorlik gulshani, shohlik nurlarining matla'i, shahanshohlik falakining yulduzi, sahovat va layoqat jamiyatining xulosasi, shon-shavkat sahifasining unvoni, osmon qadrlik, yulduz, iqboli balandlikning porlar gavhari, olamni srituvchi oftob, adolat va haqiqat osmoni, karam va raiyatparvarlikning jahonni yorituvchi to'lin oyi, birdamlik poyasini mustahkamlovchi, do'stlik darajasini balandlatuvchi, ko'ragoniy [ya'ni Temur] xonadonining namunasi, Chingizxon oilasining zubbasi [ya'ni Akbarshoh] tangrining iltifotlari shu'lasidan, Ollohning xayru sahovat gulidan, xudoning yaratuvchilik karomati nurlaridan bahramand bo'lsin. Ulug'lik va zafar osmonining yorug' yulduziga saodat sharafi bilan jahongirlik yo'ldosh bo'lsin⁴⁸.

Vafodorlikka sabab bo'luvchi muhabbat asos marosimlarni ado qilgandan so'ng haqqoniy, oliy janob fikrimiz o'z mehr jilosini namoyon qiladiki, muattar islik havoning mushkanbar taratishidan olam jannat rashk qiladigan holda bo'lgan shu qutlug oqibat kunlarda muvofiqlik-ni asos qilib olgan haqshunos xotir(imiz) «Bu olloh fazli, xohlagan (kishim)ga beraman va tangri buyuk fazllar egasi» (oyati)ning mufassal va haqqoniy mazmuni bilan xudoning buyuk saqlash uchun berilgan buyum bo'lmish xalofatning muhim ishlari berdi,

⁴⁸ I. Nizomiddinov "XVI – XVIII asrlarda O'rta Osiyo Hindiston munosabatlari" O'z SSR "Fan" nash. T. 1966. 75 b.

chunki davlat bundan yaxshiroq bo'lsin.

Tangri marhamatining yordami va marhum ulug'lar pok ruxlari bilan zebu ziynat va shoni shavkat bilan umr kechirganlarning behnsob sharafi (ularning) noiblaridan holi bo'lmasin, gullab –yashnayversin, uning mevasi merosxo'r bo'lsin. Olam bezagi (podshoh) fikrida mahfiy yer pinxon qolmasin, yaramas shia firqasi o'zlarining yomon nomaqbul shiorini paydo qilib kundan-kun yolg'onni orttirish va safsatabozlikni kuchaytirishga intilmoqdalar. O'tkir fikr va hozirjavoblik bilan ziynatlangan, avlod – ajdodlaridan tortib qudratli shohlarga manzuri nazar bo'lib kelgan Muhammad Nazarbiy dodxohni — u ko'pincha zarur xizmatlar va podshohlikning muhim ishlarini tartibga keltirishga tayin etiladi — yo'ldan ozgan, adashgan ul toifaga nasihat qilish jihatidan yuborgan edikki, borib ularning xulq-atvorlarini yo'q qilishda harakat ko'rsatgan. Mushorulilayh oliy ostonani o'pish bilan baxtiyor bo'lgandan so'ng ma'lum bo'ldiki, (shialar) islomga tobelik qilmaganlar. Binobarin, shohlik ehsonidan parvarish topgan Xorazm viloyatining voliysiga, nihoyatda farmondor bo'lishlikni taqozo etuvchi, o'z jonini saqlash shukronasining tuhfası sifatida (oliy) ostonaning barcha bandalari bilan birgalikda u qavm ustiga (bostirib borishga) amr qildikki, Mashhad, Astrobod va Nishopurgacha borib, ketma-ket hujum va talon-toroj qilib, u tabiatan yomon xulqlilar egallaganligini Muhammad Nazarbiy dodxoh keltirib o'tadi⁴⁹.

Abdullaxonning yuborgan elchisida javoban Akbarshoh ham noma jo'natadi. Ya'ni Samimiy do'stlikning toza hamda ochiq ko'ngillik va dilxohlikning muattar bo'yp yaratilgan bog'lar gulzoridan (ya'ni maktubdan) hamda mazmunlarida u fayzlik hushbo'y yangi ruh bilan tozalandi va jannatdek gullagan ko'ngil beandoza ravshanlik topdi. Muhabbat va qadimiy do'stlik bog'lari gullab-yashnab ketdi. Samimiylik va hamjihatlnk asosi mustahkamlandi.

Bu maqtovga sazovor xush odat (ya'ni o'zaro maktublar yuborish) aslida ruhoniyl uchrashuv va so'zlashudan iborat bo'lib, faqat ugina mushtoq dillar

⁴⁹ I. Nizomiddinov "XVI – XVIII asrlarda O'rta Osiyo Hindiston munosabatlari" O'z SSR "Fan" nash. T. 1966. 76 b.

shodligini orttira oladi va sof ko'ngil sevinchining ziynati bo'la oladi. Bu xush odat

yuzma-yuz o'tirib qilingan majlislar va ochiq-oshkora suhbatlarning mislsiz badali hisoblanishi mumkin.

Sulh asosini mustahkamlash va hamjihatlik chashmasini tozalash yo'lida har ikki tomon ahamiyat bersin deb, xushbo'y homa bilan yozilgan va "Hind o'rtamizda bo'lsin" (degan) so'zlar "ma'qul nazarimizda. Ma'lumki, (payg'ambarlar) bu mavjud va fasad olamida muhabbat va hamjihatlikka talluq bo'lmagan bo'lishini maqsadga muvofiq deb ko'rsatmadilarkim, koinot silsilasi shunga (hamjihatlikka) bog'liq va aloqadordir. Va har qanchonki, bu ma'ni qudratlik borgoh ustunlari bo'lmish sultonlar tabaqasi davrida zohir bo'lsa, (bu holda) hamma vaqt molu – mulk barakali, samarali va yaxshi natijali bo'ladi hamda ming-minglab aholi va (turli) sinfdagi (inson)lar sihat-salomatlik beshigida orom topadilar.

Sulh marosimlarida izhor etishda va do'stlik lavozimlarini amalga oshirishda bizlarga peshqadam bo'lmoqlik kerakkim, o'tgan hokimlarning ko'pchiligiga qarama-qarshi o'laroq, barcha haqtalab himmatimiz sulhi saodatning ochilgan vaqtidan boshlab doimo hamma tabaqalar bilan yaxshi munosabat va samimiy aloqada bo'lish yo'liga qaratilsin. Va har qancha bu voqiyning (ya'ni do'stlikning) shabbodasi (ya'ni tashabbuschisi) u ulug' zot bo'lsalar, u vaqtda bu xil munosabat-larni saqlash va bu zayldagi aloqalarni himoya qilishlik bizning himmat zimmamizga yanada ko'proq lozimdir. Binobarin, shu kunlari Eron hokimi qadimiy tanish-bilishlikni va sobiq oshnolikni nazarda tutib, Yodgor Sulton Rumluni yuborib yordam berishni iltimos qilgan ekan, (bu iltimos) qabul qilinmadi. Va yana, Shohrux Mirzo viloyatlaridan birida Kobilda yoki Kashmir yo Savod Bujir va yoxud Tirohda jogirga ega bo'lish orzusini qilgan edi, yaqin qo'shnichilik mulohazasini qilib, uning iltimosi ijobatga olinmadi, unga Malva viloyatida jogir berdik.

Shuningdek, Qandahor mirzalarini oliy dargohga chaqirib, qadimdan imperiya(miz)ga kirgan bu viloyatni (Qandahorni) bobiriy mirzalarga tayin

qilindiki, mabodo Turon qo‘shinlari bu yerlarni Eronga tegishli deb o‘ylab, (unga) g‘urbat biyobonida sarsonu sargardon bo‘ldi⁵⁰. Bu tomonga panoh tortib kelgan vaqtda uning peshonasida afsuslanish alomatlari borligi ko‘rindi.

Va Shohrux Mirzo va Muhammad Hakim Mirza farzandlarining bu davlat ostonasida iltijo qilib kelishlari u oliy va shavkatlik pok muhabbatning alomatidir, deb ishora qilinibdi. Bizga tegishlik, xos kishilarning bu tomonga kelishini qanday qilib shunday tasavvur qilasiz? Muhabbat va hamjihatlikning taqozosi bilan fathlar vositasi bilan yozilgan ekan, biz buni u oliy zot yaxshi niyatlarining natijasi deb hisoblab, xursand bo‘ldik. Aziz farzand (Abdulmo‘min) yoshligi tufayli o‘ziga nomunosib birmuncha ishlar qilibdi, bundan ko‘ngil qolib, do‘stlik etagiga chang o‘tirishi mumkin deb va buning uchun uzr-ma‘zur aytilib do‘stlik qalami bilan bitilgan (va) Mavlono Husayniy keltirgan gaplarga kelsak, elchi kelishidan oldin yo‘lda suvga cho‘kib ketganidan maktub mazmuni ma‘lum bo‘lmagan edi. Haqiqatni tanlangan xotirimiz bu voqeani eshitishdan afsuslandi. Qadimiy do‘stona munosabatlar hech qachon shu xilda haqiqiy do‘stlik qonun-qoidalari bilan tartib topmagan va intizomga kirmagan ediki, mabodo biror bir narsa bo‘lsa hamki sadoqat etagiga malomat g‘ubori o‘tirmasin. Farzandlar o‘z haqiqiy otalariga, xususan u oliy dastgohga erkalik qilgach, majoz padarga nisbatan bu ma‘ni va yuz bersa nima bo‘libdi, Farzandlik baxt shuki, ota rizosi farzandning himmat burchi bo‘lib, buni asrashda u astoydil harakat qiladi.

Ishbilarmon elchilarning vositasi bilan bir qancha marta qaror topgan buyuk ahdnomalar va sharaflik shartnomalar xotiramizda hamon jilolangan va naqshlangandir. Musulmonlik rasmi va valine‘matlar odatiga ko‘ra, do‘stlik va hamjihatlik ustunlarini abadiylashtirish uchun haqiqatni ixtiyor etgan va himmat xislatlik ommaga uning (bu xildagi say – harakatlarning) o‘ndan biri ham yetarlikdir. (Yuqorida) ba‘zi yurishlar Ahmad Ali Otaliqning kelishiga qadar kechiktiriladi, deb yozilgan so‘zlar (ma‘nosi) tushunildi. U jahongashtaga ruxsat berilish haqiqati sharif quloqlariga yetib borsa, ruxsatdan

⁵⁰ M. M. Xayrullaaev “o‘zbek diplomatiyasi tarixi” “Sharq” nash. T. 318b

so'ng, oliy zot bilan uchrashishi haqidagi zarur amr ham qilindi⁵¹. Agar muqaddas joyga yetib borib uning (Ahmad Ali Otaliqning) rostgo'y tilidan sadoqat sirlari va muvofiqlik nazokatleri ma'lum bo'lsa, savob andish ko'ngillarida yashiringan har bir irodani pinhonlik ichidan (chiqarib) ishga soladilar va do'stlikni mustahkamlash lozimligi yo'lida qanday yordam haqiqatni ixtiyor qilgan xotirlariga kelsa aytsinlarki, bu munosib intilishda nur porlaydi. Tangriga shukurlar (bo'lsin)ki, farmonravolik taxtiga o'ltirgan vaqtdan to hozirga qadar ikkinchi asrning o'ninchi yili sulhi iqbol ravnaqining avvali hamda buyuk bahor gullashining ilk davridir, bu tangri dargohidan (iltifotlar) so'rovchining barcha haqiqat asos niyati shuki, o'z g'araz maqsadlarini nazarda tutmay, doimo jahon xalqlarining tartib va intizomi yo'lida say – harakat qiladi. Bu saodat samarasidan bir qancha yuqori darajalik hukmdorlar o'rtasida (ilgari) bo'lib olingan keng Hindiston mamlakati tasar-rufimizga kirdi. Yana tog'lar va mustahkam qal'alar hamda mushkul joylarda hokimiyatga itoat qilmay, dushmanchilik yo'lidan borgan inson tabaqalari yaxshi niyat(imiz)ning taqozosi bilan ketma-ket itoat yo'lga kirdilar hamda turli inson guruhlari uchun ularning bir-birlariga nisbatan qarama-qarshi kayfiyatda va muholiflik fe'l-atvorda bo'lishlariga qaramay, o'zaro aloqada bo'lish munosabatlari paydo bo'ldi.

Niyat va rostgo'ylik hamda yaxshi ishlarning natijalaridan bo'lmish diloviz so'zlar to shungacha yetib kelgan ekan, nochor tangri ne'matlarining ba'zilari haqida xudoga shukurlar va odil tangriga maqtovlar bo'lsin , hamjihatlik bazmini shodlik bilan bezatiladi. Muqaldas olam nuri bilan jilolangan ko'ngil oynangizga mahfiy va yashirin qolmasinki, shu kunlari buyuk qo'shinning Panjob mamlakati tomon kirib kelishi sodir bo'ldi. Garchi (bu yurish) yuzaki qaralganda bu o'lkaning sayri va shikori bo'lsa, ammo (aslida) mustahkam va ustivorlikda teng yo'qdir. Orombaxsh va latofatda uzoqni ko'ruvchi donolarning Lavr sultonlarining poyi qadami yetmagan, ko'ngil(ni) oluvchi Kashmir viloyatini bo'ysindirish ham mahfiy fikrda bor edi, (chunki) u

⁵¹ M. M. Xayrullaaev "o'zbek diplomatiyasi tarixi" "Sharq" nash. T. 319 b

mamlakat hokimlarining adolatsizligi qulogʻimizga yetgan edi⁵². Shukrni biz bajo keltirdik.

Yana (Panjob mamlakatiga kirib kelishdan maqsad) Kobilning sayru shikori va u xursandlik ishrat saroyning gashti edi. Kashmir togʻlarining eng uzoq chekkalari va Tabatda sayr qilib va u ilohiy sanʼat nigoristonining nodir (manzara)larini koʻzimiz bilan koʻrib, bir-biriga tutashgan togʻlar va turli-tuman baland-pastliklar hamda oʻnqir-choʻnqirlar bilan chegaralangan Pakli va Damtur viloyatlarining yoʻli orqali sayr qilish har bir fikr va balandlikni oʻlchash yoʻllaridan oʻtishlikni mushkul deb biladi, qoʻshinimiz dilga maʼqul tushgan Kobilga yetib keldi.

Mahfiy fikrlardan biri shuki, mamlakat (yaʼni Hindiston) gʻarbida Daryoyi Shoʻr sohilida joylashgan va oʻz qoʻl ostidagilarga adolat yoʻlini tutmagan Tata hokimiga hushyorlikni oshiruvchi birinchi nasihatlar qilinsa, toki u farmonbardorlikning asosiy yoʻliga rahnamo boʻlsin va agar baxtning madadsizligi natijasida farovon oʻlka boʻlmish bu viloyatni adolatlik farmonbardorlarning biriga topshirsin. Va aqli raso va uzoqni koʻruvchi hamda (nasihatlarga) quloq beruvchi boʻlmagach, oʻzboshimchalik kayfiyati bilan ozginagina ajraldi. Munosib lashkarni u oʻlka tomon yubordik va ixlosmand bahodirlar har xususda tayyorgarlik va taraddudga ahamiyat berib, ikki yilga yaqin muhlat ichida xoh daryolarda (boʻlmasin) va xoh sahrolarda (boʻlmasin) ayrim-ayrim jangu jadal qildilar⁵³.

Sulton Muzaffar Gujarotiyini xilofot ostonasiga keltirayotgan vaqtda u oʻz-oʻzini oʻldirdi. Rahm-shafqatni ixtiyor etgan xotiramiz biror bir odamni oʻldirish va (yoki) tangri bunyod etgan (biror) narsani yoʻq qilishga atroflicha va chuqur mulohaza qiladi. Gʻolib chiqqan ediki, agar (uni) nazar peshgohimizga keltirsalar u (albatta) salomat qoladi.

Ulkan Dekan viloyatining ulugʻi boʻlgan Nizomulmulkning birodari Burxonulmulk zamon hodisalaridan bu tomonga panoh tortib kelgan edi. U

⁵² M. M. Xayrullaaev "oʻzbek diplomatiyasi tarixi" "Sharq" nash. T. 320 b

⁵³ M. M. Xayrullaaev "oʻzbek diplomatiyasi tarixi" "Sharq" nash. T. 321 b

o'lkadagi haqqoniy ahvol haqiqatni eshituvchi qulog'imizga yetib kelgach, Burxonulmulkka zo'r iltifotlar ko'rsatilib, Dekanni bo'ysundirishni unga topshirgan edik. Isyon va ra'iyatga shikas yetkazilayotganlik xatari kelgandan so'ng, Malva va Hondis viloyatlarining amirlari hukmi oliyga itoat qilib u viloyat (Dekan) hokimligini Burxonulmulkka topshirib qaytib keldilar. (Burxonulmulk esa) kam hafsalali bo'lganidan kishilar kayfi tobini sinamay turib, mustaqillikka intildi. Ko'rnamaklik yo'lga kirishga oshiqish o'z-o'zini yo'q qilishdan iborat bo'lganidan, andak vaqt ichida undan va farzandlaridan asar ham qolmadi va u diyorning boshliqlari ul silsilaga mansub bo'lgan kishilardan birini (hokimiyatga) ko'rsatib, mag'rurlanib ketdilar.

Iqbol yulduzi, davlat va shon-shavkatning ravshan ko'zi (bo'lmish) saodatmand farzandimiz sulton Murod boshchiligidagi zafarasar askarimizga (Dekanga yurishga) farmon berdik, ular tangrining qo'llab-quvvatlashi bilan o'zi bir boshqa Hindiston atalgan keng mamlakatning ko'p qismini tasarrufimiz kiritdilar.

Haqiqatmand jangchilarimiz sharqiy mamlakatlar chekkasidagi Daryoyi Sho'rga tutashgan keng Udiysa (Orissa) viloyatini bo'ysundirdilar va bir necha mingsipohlari omonlik topib, mulozimlar qatori ostonasiga keldilar⁵⁴.

Mavlono Husayniy mulozimati (ya'ni elchilik xizmati) bilan baxtiyor bo'lganidan ko'p o'tmay saltanat ishlarini bezatuvchi mutasaddilarga ishorat qilindiki, ular (Mavlono Husayniyning Hindistonga kirishi uchun) tezda munosib ruxsat qilsinlar. Shu vaqtda birmuncha baxti qarolar dilga ma'qul tutgan Kashmirda fitnayu fasod boshlab, tangri ato qilgan davlatga ixtilof va nizo ko'rsatdilar. Iqbol qo'shinimiz esa barcha yaqin kishilar bilan birlikda ayshu ishrat uchun ovga ketgan bo'lib, qudratining yordam kuchi bilan ko'zimiz ochildi va u g'alayon haqida xabar topildi. (So'ng) shamol va yomg'irning haddan oshishiga qaramay, (tezlik bilan) yo'lga tushdik. G'olib g'oziyalar mushkul yo'llardan o'tib, bu mulkga kirishlaridan avval zaruriyat orqasida bu nopok to'fonga tushib qolgan ba'zi

⁵⁴ M. M. Xayrullaaev "o'zbek diplomatiyasi tarixi" "Sharq" nash. T. 322

saodatlik haqiqatmandlar fursatni qulay bilib, ularning eng katta boshlig'ini boshini keltirdilar. Shavkatlik qo'shinimiz yaqinlashib kelgan (ham) ediki, bu bexazon bog'istonga yana o'tishga to'g'ri keldi va bu fayzbaxsh gulzaminda shakliy va ma'naviy lazzatlar olindi. (Shuning uchun) elchi yuborishlik kechiktirildi. Xisravona tug'imiz (o'sha viloyatdan) qaytayotganda yo'lda Mavlono Husayniy voqeasining xabari keldiki, u qorin shishish kasali bilan o'ldi (deb). (Bu xabar) afsuslanishimizning ortishiga sabab bo'ldi. Binobarin, muhabbatni ortdiruvchi ba'zi so'zlarni buyuk avliyolar avlodi, sof zotlilar xulosasi, bu oliy xonadonning ulug'laridan bo'lmish Xo'ja Ashraf orqali aytib yuborildi, toki munavvar ko'ngillarini barcha haqiqiy ahvoldan ogoh qilsin va ham elchi va nomalar vositasi bilan tahlil etilgan va mustahkamlangan ahdu paymon munosabatlari aniq bo'lsin. Muhabbat va birdamlik shon-shuhratining qudratidan umid shulki, quvonchni orttiruvchi xushxabarlar bilan ko'ngil bo'stoniga tozalik bag'ishlasinlar⁵⁵.

II. 3. Abdullaxonning Dashti qipchoq va boshqa mintaqalari bilan diplomatik munosabatlari.

“Abdullanoma ” asarining ikkinchi qismida Dashti Qipchoq hududidagi

⁵⁵ M. M. Xayrullaaev “o'zbek diplomatiyasi tarixi” “Sharq” nash. T. 323 b

elchilik munosabatlari haqida keltirib o'tilgan bo'lib, undagi elchilik aloqalari albatta Abdullaxon bilan bo'g'liq bo'lgan. Asarda keltirilishicha onhazrat (Abdullaxon) muborak safarga o'tlanayotgan chog'da uni xalq inom, ehsonlar bilan shod qilgandi. Shuningdek islom va musulmon ahlidan Abdullaxon behad quvonadi. «Abdullanoma»da 1579 yil 25 may kuni yana Buxoro davlatiga Dashti qipchoqdan elchi kelib, do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga muvaffaq bo'lganligi qayd etilgan⁵⁶. Haqnazarxon to umrining oxirigacha Abdullaxon II bilan tuzgan ittifoqqa sodiq qolgan. Shuning uchun 1580 yili Bobo sulton Qozoq xoniga kuchlarni birlashtirib, Abdullaxon II ga qarshi birgalikda kurashish taklifi bilan Joniqulbiyni elchi qilib yuborganda, uni rad etib, elchini o'limga hukm qilgan⁵⁷. Hofiz Tanish bu haqda shunday ma'lumot beradi: «... Bobo sulton onhazrat (Abdullaxon II)dan umid uzib Turkiston tomonga bordi. Biroq Abdullaxon safar chog'da Onhazrat ovga boradi va ayni shu paytda Toshkentdan Buxoroga Qo'shquloqbiy elchi bo'lib keladi. U saroy amaldorlariga uchraydi Qushquloqbiy elchilik sohasida ancha tajribali bo'lib elchiga xos madaniyat bilan o'zini saroyda tanitgan shaxs bo'lgan. Qushquloqbiy Buxoroga kelgan paytda Abdullaxon ovdan hanuzgacha qaytmagandi. Nihoyat elchi o'zi bilan keltirgan maktubni Abdullaxonga beradi, elchi keltirgan maktubda quyidagi so'zlar keltirilgan edi: “birinchdan Bu hamma jinoyatlar va jarimalar garchi qazoyu qadirdan bo'lsa ham, tavba yo'lini tutib Ma'zirat vositaligida iroda etganini ushlab, bayt keltitadi :

Umidimiz shulki, lutf yuzasidan

Gunoh sahifamizga nasx xatini tortsalar

Qulingizimiz va ojizligimizni ochiq aytamiz

Sening mehringa bog'langan ahdni buzish yo'qdir

Bizlarning xotiramizda ahdni buzish yo'qdir⁵⁸

deb ta'kidlaydi va ikkinchdan shuki, o'sha zamonlarda qozoq podshohlari nifoqidan tulgan dillari bilan Dashti Qipchoq (hzirgi Qozagistonning Janubiy

⁵⁶ Hofiz Tanish Buxoriy 1 – kitob. 346 b.

⁵⁷ Abuseyitova M. X. Казахское ханство во второй половине XVI в. С. 56.

⁵⁸ Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. II tom “Sharq”nash. T. 2000. 6 b.

Russiya yerlariga XI sardan ko'chib kelgan qipchoq qabilalarining bo'lgan hududdir) kelib, viloyatning bir qismini olmoqchi bo'ldilar bizlarda ularga qarshi bo'lgan kuch – qudrat yo'q va ular bilan kurashmoqqa sabr toqat ham yo'qdir. Siz oily hazratlari nimani xoxlasalar amalgam oshirishgava toki ushanga amal qilinadi” deb yozilgan edi Darhaqiqat Toshkent hokimi Bobo sulton Abdullaxonga qulliq qilgani, elchiga yuborgan maktubida bayon etilgandi⁵⁹.

Abdullaxon Amudaryo va Chorjo'y atroflariga ov safariga otlangan paytda yan bir elchi Ganjiali shig'ovul Xonning huzurida xatini arz qilish uchun keltirildi. Elchi bir qancha talablarni Abdullaxonga bayon qildi, shu o'rinda Bobo sulton o'zining talablariga yana Andijonni ham qo'shadi. Elchining maktubini eshitgach Abdullaxon achig'lanadi va elchini Do'stimbiy va kuzbog'I bulturkbiylar kelgunlaricha o'z vataniga ketkizmaslikni buyuradi. Shuningdek elchini Buxoroda saqlab turishni ham vazirlariga buyurgandi. Biroq Abdullaxonning elchisi Do'stimbiy Toshkentga kelmasidan oldin Bobo sulton kuchsizlanib qolganidan qozoqlar bilan sulh tuzgan va u sulhda Yassi va Sabron (hazitgi Yassi – Turkiston, sabron – Turkistonning shimoliy tarafida bo'lib, undan 35 km masofada joylashgan yirik o'rta asr shaharidir) viloyatlarini qozoqlarga suyurg'ol qilgani haqida va qozoqlar sulhga binoan Sirdaryodan o'tib, viloyatlarni o'zlariga isyon yo'li bilan bostirishlarini ta'kidlab o'tgan edi. 1579 – yil elchi bu voqealarni Abdullaxonga yetkazdi⁶⁰. Bo'lib o'tgan voqealardan Toshkent hokini Bobo sulton va Buxoro hukumdori Abdullaxon o'rtasida ittifoq buzilishi mumkin edi, biroq Bobo sulton Abdullaxon huzuriga o'zining qizini va bir qancha saroy ayonlari bilan birga savg'a salomlar bilan balxda turgan Abdullaxon huzuriga yubordi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Abdullaxon marhamatligi va oliyjanoblighi tufayli bo'lib o'tgan voqealarni bo'lmagan hisoblab, elchi Qushquloqbiyga mehribonchilik aylab Bobo sultonning qizini elchiga hamroh qilib o'z

⁵⁹ Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. II tom “Sharq”nash. T. 2000. 6 b.

⁶⁰ Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. II tom “Sharq”nash. T. 2000. 7 – 8 b.

vatanlariga qaytishga ijozat beradi. Abdullaxon Bobosulton elchilariga o'zining elchisi Mirzo Shohmuhammad do'rmonning otasini qo'shib jo'natadi. Abdullaxonning elchisi olib brogan maktubda quyidagi jumlar keltirilgan edi: “Agar ittifoqchilikning asosi do'stlikning binosi mustahkam bo'lib turishini xoxlayman, birlashish binosini qurib, ixlos chashmasini fitnayu fasod g'ubori bilan bekitmaslikni. Yana agar qudrati yetsa Samarqandlik buzuq sultonlarni Abdullaxon huzuriga jo'natishni. Agar unga kuchi yetmasa, o'z viloyatlaridan haydab chiqarishni jazm qilsin, agarda bu so'zlar qabul qilinmasa unda Bobo sulton mamlakatiga ofat kelishini aytishni elchiga buyuradi”. Bu ikki davlat o'rtasida yan bir qancha elchilik aloqalari bo'ladai, ulatni o'z vaqtlariga qarab keltirib o'tamiz. Abdullaxon Bobo sultonga o'ziga buysunishini urush orqali emas, aslida elchilik aloqalari orqali hal etishni afzal ko'radi⁶¹.

Abdullaxon bir necha kun betob bo'lib qoladi. Biroq Abdulhakim tabibning say – harakatlari bilan Abdullaxon shifo topadi va xalqqa sadaq berishni xoxlaydi. “Sadaqa umirni ziyoda qiladi” degandek Abdullaxon Buxoro arkida iyid nomozini o'qib kambag'al va talabalarga sadaqa inom etadi. Ayni shu paytda Abdullaxonning betobligini eshitgan atrofdagi dushman davlatlarga Abdullaxon ovga chiqayotganligini Baxromnishop xabarchilari mamlakat atrofiga jar soldiradi. Bundan maqsad atrofdagi davlatlarning g'arzli niyatlarini amalgam oshirishlarida to'siq edi.

1579 – yil 29 – noyabr oyida Dabusiy qal'asi atrofiga yoshu – qari pahlavonlar va spohsolorlar ham to'planishni buyurdi va Abdullaxon Xoja Sa'duddin Abubakr sa'a bilan birgalikda nasafga yo'naldi imom Abubakr Sa'dning mozoriga borib ziyorat qilganlaridan keyin, birgalikda Nasafga yo'naldi. Shu jumladan ular Buxoroning qasri Orifxon yo'lidagi Shohrud ustida joylashgan Xoja Ali Sulaymon ko'prigiga kelganda ular qo'shini bilan alohida bo'lib ajralishib, Abdullaxon Buxoroga qaytadi va Xoja Naqshband mozoriga tushib ziyorat qiladi⁶². Shuningdek Abdullaxon ziyoratining ikkinchi

⁶¹ Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. II tom “Sharq”nash. T. 2000. 7 b.

⁶² Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. II yom “Sharq”nash. T. 2000. 7 b.

kuni Xoja Dangir keyin kun esa Said amir kulolning qabrlarini ziyorat qiladi va nihoyat abdullaxon Nasaf tomon yo'l oladi. Shu orada Abdullaxonning ukasi Ibodulla sultonda elchi keladi. Elchining maktubida: "Dushmandlarning spoxlari Sirdaryodan o'tib, ba'zi shahar va viloyatlarni talon – taroj qilib ketgani, bu hodisaga Abdullaxon nimani ravo ko'rsa inom qilsinlar" deb yozilgan maktubni Abdullaxonga berdi. Ayni shu paytlarda Abdullaxonning tashi hududlarga chiqmaganligini eshitgan Toshkent hukumdori Bobo sulton Abdullaxon tomonidan qancha marhamatlar bo'lib turganiga qaramay qozoq boshlig'i sultonlari bilan kengash tuzadi⁶³. Qozoq Sabron sulton ham Abdullaxonga chorikorlik qilib, mehribonchiliklar ko'rgan bo'lsa, ham Buxoro shimolidagi hududlarni talon – taroj qiladi.

Sabron sultondan biroz oldin bo'zaxo'r sulton biroz qo'shin bilan Samarqand atrofini talon – taroj qilgan edi va Kunboy mavzega borib, ko'pmol mulk o'ljalarni olib qaytgan edi. Bo'lib o'tgan voqeadan xabardor bo'lgab Abdullaxon bu fitnalar ortida kim turganligini aniqlashni amaldorlariga buyurdi. Natijada bu fitnalarning qo'zg'atuvchisi Bobo sultonligini aniqlagandan so'ng uni daf qilishni buyuradi. Abdufatix Isfandiyorxon sulton va Suyunchimuhammad sulton (Abdullaxonning amakisi) birodari Said Muhammad sulton bilan Samarqandga borishni va dushmanlarni topsa ularni jazolashni buyuradi.

Shuningdek Bobo sulton yana bir qancha Abdullaxonga qarshi fitnalarni amalga oshirgan. Ya'ni Bobo sultonning birodari Tohir sulton Iskandarfarmon ibodulla sulton dargohiga iltijo qilib, ariza yubordi. Ushbu arizaning mazmuni quyidagichadir: Birodarim Bobo o'zi qilgan ishlaridan sharimsor va xijolatda bo'lib, deydi: "Nech marta ahdu paymonni buzdim, endi onhazrat etagiga qo'l urishga menga yuz yo'q, Seni agar qo'lingdan kelsa vosita bo'lib. Ibodulla sultonni onhazratga vasila qilsang, ul zot hazratdan jinoyatlarimni kechirishlarini iltimos qilsalar. Jonim omon qolishga sabab bo'lsa, g'araz shuki: sulh yaxshi, (Qur'on) oyatlariga amal

⁶³ Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma" tarj. "Sharq" nash. T. 2000. 8 b.

qilib, yarasha qadam qo'ysalar, ikki tomon rioyasida o'rtada sulh qilsalar va Onhazrat xotiridagi masalalarni ko'tarsa, mamlakatlar bunga guvoh bo'lsin". Ushbu ariza Ibodulla sulton vositachiligi bilan Abdullaxonga xabari yetdi. Abdullaxon bu arizani qabul qilar ekan shunday deydi: "Bobo sulton o'z birodarini guvoh qilib mendan avf so'ragan bo'lsa, men ham uning arizasini rad qilish yoki qabul qilishni inim Ibodulla sulton ixtiyoriga topshirdim, shuningdek samarqandliklarni tutib menga yuborsin, yoki ularni viloyat atrofidan haydasiqabul barmog'ini toat ko'ziga qo'ysin. Mening buyruqlarimdan boshini toblamasin va buysunishga so'z bersin" deydi. Abdullaxon inisini talabini qabul qilgandan so'ng, Ibodulla sulton yuborgan kishiga savg'a – salomlar yubordi. Shuningdek elchining so'zlarini Abdullaxon birma – bir yozib nomani o'sha elchiga berib yubordi. Elchi qaytib kelib nomaning mazmunini Bobo sultonga aytadi. Natijada Bobo sulton Abdullaxonning yuborgan maktubining so'zlarini tushinib ikkinchi marta unga tavba qildi. Uzur bayon qilib, itoat oyog'ini yo'lga qo'yib, yomonlik g'uborini o'rtadan ko'tarmoqchi bo'lsada, lekin amirlar jahl myuzasidan uni man qildi. Darhaqiqat Abdullaxon ikkinchi marta ham Bobo sultonni avf etdi, negaki, bu holat "Abdullanoma" asarida Abdullaxonning mehr muruvvatliligini ta'kidlab ko'rsatadi⁶⁴.

Badaxshon hokimi Soh Sulaymon, Shohruh mirzoning g'alabasi tifayli 5 yil hokimyatni tark etib, Ka'ba, Madina Olloh ziyoratida bo'ldi. Shuningdek keyin ular Kobulga marhum Humoyun podshoning o'g'li Muhammad Hakim (Temuriyzoda Kobil podhosi) Mirzo ittifoqi o'rtalarida kuyov qarindoshlik munosabatlariga qaramasdan ko'p qo'shin bilan Badaxshonga bordi⁶⁵.

Shohruh mirzo Badoxshon hokimi temuriylardan bo'lib, bobosiga qarshi qo'shin tortdi. Biroq Shohruh mirzoni qo'shinining xiyonati tufayli Zafar qal'asi (Hisor Shodmon) ga qochadi. Natijada Muhammad Hakim Podshoh yordami bilan Shoh Sulaymon Badaxshonni egalladi.

⁶⁴ Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma" tarj. "Sharq" nash. T. 2000. 8 – 9 b.

⁶⁵ Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma" tarj. "Sharq" nash. T. 2000. 20 b.

Shuningdek ikkalasi Abdullaxon huzuriga elchi yubordi. Elchi 1580 – yilning 29 martda Shoh Sulaymon Mehri Ko'kaldosh Muhammad Hakim esa Nuriddin Muhammadni savg'o salomlar bilan Dizax atrofida ostona o'pishga keldilar. Qulbobo Ko'kaldosh vositachiligi bilan Abdullaxon huzuriga kelib elchilik maktubini bayon etdi. Darhaqiqat unda: “Niyoz peshonasini dargoh tuprog'iga surtib, do'stlik va ittifoqlik xabarini yetkazdi”. Shuningdek Abdullaxon samarqandliklarga qilgan qilgan yurishlarida qo'shinini taqsimlaydi. “Mo'min sulton daryo labiga qarab qo'shini bilan jo'naydi. Isfandiyor sulton qo'shini bilan amir Qulbobo 300 urushqoq qo'shini bilan va uning ketidan Tinishboy jaloyir nayza sanchivchi termiz lashkari bilan urushga yo'l oladilar”. Nihoyat Bahr(o'rta yer dengizi) dengizidan o'tish uchun harakatlanayotgan bir paytda samarqandlik sulton Abdullg'affor sulton va Abdusattor sulton, shu jumladan guruh – guruh qurollangan qo'shin bilan o'rtasida kurashsh uchun harakatlar boshlandi⁶⁶. Bu paytda Abdullaxonning ittifoqchisi bobo sultonga zarar keltirardi. Shuning uchun ikkinchi marta sulh to'g'risida Qo'shquloqbiy va Abdulhayr sultonning dargohida ulug' martabada u o'ldirilgandan so'ng, Bobo sulton tomoniga brogan Abdulla Mirzo mang'itni oily dargohga elchi qilib yubordi. Elchi to'xtovsiz daryoning narigi tomoniga o'tib, xoqon Abdullaxonning saroyida bo'lish uchun daryodan o'tdi.

Elchilar Abdullaxon huzurida tezda tuprog'ini peshonasiga surib, sulh tuzishni orzu qildilar. Shuningdek elchga juda katta masuliyat hisi bo'lganligi uchun elchi albatta hukumdorning oldida turgan paytda o'z yurtining madaniy – siyosiy holatini o'zida aks ettirgan holda gavdalanadi. Ta'kidlab o'tish joizki, Abdullaxonning ham elchilarni o'zining farosati, aqli, zehnidan bildiki, uning tavba qilishini fravnning Musoga duo va salom bo'lsin, ya'ni uning noumidligida qilinganga o'xshaydi. Elchiga javob tariqasida “Siz shulki, agar yaqinlik ipi uzulmasin, viloyat yana oyoq osti bo'lmasin va zafarsar sipohidan zarar yetmasin, Bo'zaxur va boshqa sultonning o'z dargohidan quvlasin. Agar qo'ldan kelsa ularni menga tutib yuborsin, agarda bunga qarshilik qilsa, jazm bilginki, g'azab doirasining markazi bo'ladi” deb Abdullaxon Qushquloqbiyga o'z yurtiga qaytishga ruxsat beradi va Abdulla mirzoni

⁶⁶ Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. “Sharq”nash. T. 2000. 20 – 21 b.

tutib kelib podshohga inoyat va ikrom bilan siyladi.

Abdullaxon 1580 yil 21 – aprel kuni ziyoratga otlangan chog'da Abdusamadbiy tomonidan chinqubuloq mavziyida turgan Abdullaxonga elchi jo'natdi. Unda “Bobo sulton Toshkentni tashlab qochganligini va agar inoyat qilib, fathu zafarni keltirib, ot choptirib Toshkentga yuzlansa, g'oyatda munosib ko'rinardi” deyilgan edi. Abdullaxon bu xabarni eshitib, zudlikda Kulbobo Ko'kaldosh, Mo'min sulton bilan boshqa sultonlarni Toshkentga yubordi. Ularga bu voqea haqiqat bo'lsa, shahar darvozalarini mahkamlashini, boshqalarni kirishini man qilishini buyurgandi. Bu voqealarni eshitgan Bobo sulton Abdullaxon huzuriga hasanxoji va Arislon otaliqlarni yubordi. Ular “Bobo sultonni Toshkentdan Dashtga ketishini yolg'onligini, lekin qachonki bizlardan umidini uzib qochsa, baxtsizlik tuprog'ini peshonasidan sochsa kerak” deydi. Shuningdek elchi Qushquloqbiy Bobo sultonga elchilarning Abdullaxon bilan uchrashishini hamda Turkiston va Toshkent ning bir qismini Bo'zaxo'r talon – taroj qilganini va unga Abdullaxon ishonganligini va elchilarning ma'lumotlari to'g'riligini aniq bo'lguncha elchilarni tutib turishni Bobo sultonga xabar beradi.

1580 yil 23 aprelda Abdullaxon O'ratepaga qo'shinini tortgani va Iqimbiy do'rmonni Shohruhiya qal'asini zabt etishga yuborib va ko'prik solishga buyuradi. O'sha kuni Sulaymonnishon Mahmud sultonni, Abdulboqibiy va bir guruh amirlar: Eshimbiy Jaloyir, Tumonga Bahodir bilan Xo'jand tog'lariga yubordi. Chunki tog'da ko'pgina talonchilar joylashgan edi. Shuning uchun Abdullaxon ularni muomala qilib o'z xulq – atvorlarini tushirib O'ratepa tomonga yuborishini buyuradi. Agarda qarshilik ko'rsatadigan bo'lsa, qanday usul bo'lmasin abdullaxon buyrug'iga buysunishga majbur qilishlarini buyuradi. Ayni o'sh paytda Abdullaxon Bobo sultonga elchi yuborib, to'xtovsiz Toshkent qal'asini qamal qilishlarini aytadi⁶⁷.

Biroq Qushquloqbiy samarqandlik lashkarboshi, hamisha fitnalarning boshida bo'lgan Shoh Saidni Abdullaxonga bog'langan holda dargohiga keltirdi. Bu holat Bobo sultonning gunohidan kechish mumkin bo'lgan yagona yo'l edi.

⁶⁷ Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. “Sharq”nash. T. 2000. 27 b.

Qushquloqbiy esa bu ishni uddalaydi. Bobo sullton qozoq sultonlarini o'ldirgan edi. Shuning uchun u Abdullaxon huzuriga elchi yuboradi. Maktubida Bobo sulton shunday deydi: “baxti qarolikdan va mardum ig’vosidan ko’p zomonlar yomon ishlar va noo’rin dushmanchilik qilganimdan shunday sharmandayu sharimsormanki, ikki tilli qalam uning mingdan birini yozib tamom qilolmaydi. Uzur aytishga tilim yo’q, lekin onhazratdan umidvormanki, podshohlik marhamati bilan yangi gunohimdan avf etishini, bir qancha lutf marhamatlari qatoriga qo’shsinlar, bundan keyin tobelikni va bo’ysunishni qilich uchi qadar tashqari qadam qo’ymayman, odo bu itoat shartini bir daqiqa ham unutmayman” deb yozilgan bo’ladi⁶⁸.

1580 – yil 11 may oyida Turkiy muhirdor do’rmon Axsikat tomonidan, Hoshim sulton oldidan kelib, unga munosib savg’o salomlar keltiradi. Bu elchi Atorudmisal amir Qulbobo ko’kaldosh vositachiligida kelib, elchilik hurmatini ko’rsatib, Abdullaxonning yuborgan inoyatnomasini beradi. Bu inoyatnomada shuni ko’rsatib o’tadiki: “Muhammad Mo’min sulton menga qanday farzand bo’lsa, u ham o’sha farzandim qatoridadir. Agar dushmandlik harakatlaridan boshini tortib ittifoqlik yo’lda harakatlansa, aniq bilsinki bu bog’lanish mustahkam bo’lib, aniqlik kundan kunga ziyoda bo’ladi. Faraz shulki, ul shaxriyor hazratdan farmonbardorligi va xizmatiga bo’ysunish lozimdir. Biz ham hamjihat bo’lib, ixlos kamarini belga bog’laganimiz, itoat tavqega beparvolik yo’lga qadam qo’ygaymiz. Dushmanlik va kelishmovchilik vodeysidan tashqarida turibmiz. Nurli hayotlariga va xotirlariga arz shulki, bundan keyin har qanday farmon bo’lsa xonimiz bilan qabul qilamiz”, deyilgandi. Shuningdek Abdullaxon uning elchisini podshohona inoyat va yaxshi inomlar bilan siyladi va unga tillakor shamshir, zarbof tun va sarpolar berib o’z elchisini, o’sha elchi bilan birga Xoshim sulton huzuriga yubordi⁶⁹.

1580 – yil 24 may kunlarida Sori otaliq birodari Sog’a tarafdan keladi va Bo’zaxo’rga tobe bo’lgan bir qancha boshliqlar bilan maxfiy bo’lib,

⁶⁸ Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. “Sharq”nash. T. 2000. 29 b.

⁶⁹ Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. “Sharq”nash. T. 2000. 34 b.

Samarqandga kirib keladi va elchi olib kelgan nomada: “ Har qachon Bo’zaxo’r sulton yurishi uchun Sirdaryodan o’tsa unga qo’shilib yordam beruvchilardan qanchasini boshini ostonaga keltirib, buningdek fitnalardan yana yuz kishisi o’ldirildi”. Degan so’zlar yozilgandi. Abdullaxon uning yuborgan elchilarini hurmatlab saroyda tantana uyushtiradi⁷⁰.

1580 – yil 26 may kuni Abdullaxon huzuriga Xorazmdan Pulod sulton va Temur sultonlarning elchilari kelib, Abdullaxon oyog’ini o’pish saodatini topdilar. Elchilikning mazmuni bandalikning izhori va ojizlikning bayoni edi. Abdullaxon ularni izzat ehtirom bilan kutib oldi va ularga saroyda to’xtab turishlariga farmon berdi⁷¹.

Abdullaxon o’z harakatlarini bir qancha shaharlar bo’ylab yo’naltirdi. Navakand (Shohruhiya va O’ratepa o’rtasidagi bir qishloq)qishlog’iga yetganda qirg’izlar elchi jo’natibbo’ysunganliklarini izhor etadi va Abdullaxon ularni kutib olarkan ularga o’zlarining munosabatini yaxshi namoyon qiladi. Keyin esa Abdullaxon o’z qo’shini bilan O’ratepaga yo’l oladi. O’ratepa hokimlari Muhammad sulton va xusravfarmon Abdullaxon huzuriga kelib, taslim ekanligini bildiradi va Abdullaxon ular bilan do’stona munosabatlarini rivojlantirishga va ularga mehribonchilik ko’rsatishga Abdullaxon qaror qiladi.

1580 – yil 25 iyun kuni Abdullaxon Xo’jandga yurishni davom ettiradi. Abdullaxon Buxoro viloyatiga ehsonlar olib kelish uchun harakatlarini davom ettiryotgan chog’da dushman tomondan elchi kelib, Abdullaxonga: “Sultonimiz ojizlikquillikni izhor qilib arz qiladiki, o’zlariga ishonchli kishilardan kimki xoxlasa faqir tomonga yuborsalar, toki Arslon otliq va Xojashayxbiylardan yuborgan hukumlarini rioyaga olib borib iltijo qilishligini ko’rib, Abdullaxonga aytsa”. Abdullaxon ularning buningdek ehtiromli so’zlaridan ularning gunohi yo’qdeb bildi⁷².Shuningdek Abdullaxon bilan ular o’rtasidagi munosabat yaxshilikka rivojlana boshladi. Abdullaxon o’zining harbiy yurishlari davrida

⁷⁰ Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. “Sharq”nash. T. 2000. 34 – 35 b.

⁷¹ Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. “Sharq”nash. T. 2000. 35 b.

⁷² Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarj. “Sharq”nash. T. 2000. 43 b.

Dashti Qipchoq hududlarini ketma – ket bosib olib o'z davlati hududlarini kengaytirishga harakat qildi.

Darhaqiqat Abdullaxon o'z davrining o'ta qobilyatli, ilimli, jang san'atini puxta egallagan va madaniyatli shaxs bo'lgan. Abdullaxon siyosatni mamlakat ravnaqi uchun keng qamrovda olib brogan. Albatta Abdullaxon qattiqqo'llik bilan davlatni boshqargani “Abdullanoma” asarida keltirib o'tilgan. Asarda yana Abdullaxonning Dashti Qipchoq hududidagi elchilik aloqalari mukammal darajada olib brogan. Biz yuqorida keltirib o'tilgan matinga asosan Bobo sulton bilan bo'lgan elchilik aloqalari haqida ko'p to'xtalib o'tdik.

II.2. Abdullaxon davlati bilan Rossiyaning diplomatik va savdo aloqalari.

XVI asrda Buxoro ko'plab mamlakatlar bilan uzviy savdo va diplomatik munosabatlar o'rnatgan edi. Xitoydan ko'plab ipak gazlamalari (atlas va

boshqalar), chinni idishlar, dori-darmonlar, choy, Hindistondan qimmatbaho toshlar, zumrad, doka, kimxob va boshqa qimmatbaho matolar keltirilardi. Buxoroda hindlarning butun bir mahallasi bo'lib, uni o'zining oqsoqoli boshqarardi. Xitoy va hind mollari Buxorodan Moskvaga borib, u orqali keyn G'arbiy Ovrupoga o'tardi⁷³. 1557 yilda 'Buxorodan Moskvaga elchilar yuborilib, Rossiya bilan erkin savdo munosabatlari o'rnatilishiga ruxsat so'raladi. 1558 yilda Buxoroga Rossiya podshosi Ivai IV ning elchisi sifatida ingliz Antoniy Jikinson keladi. U Rossiya Buxoroga turli hayvonlarning tasvirlari, jundan to'qilgan matolar, oshlangan qo'y terisi, yog'och idish-tovoqlar, egar-jabduqlar olib kelishi hamda Buxorodan esa paxta va paxtadan tayyorlangan mahsulotlar, ipakning turli xil navlarini va boshqa ko'plab narsalarni olib ketirishlari mumkinligini bildiradi⁷⁴.

XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib, Buxoro bilan Moskva o'rtasida savdo va elchilik munosabatlari yanada rivojlanadi.

1583 yildan 1600 yilgacha Moskvaga, Buxorodan besh marotaba elchilar yuboriladi. Ularning asosiy maqsadi diplomatik munosabatlar o'rnatish edi. Ivan IV tomonidan (1574 yilda chiqarilgan yorliqda) rus savdogarlariga buxoroliklar bilan bojsiz savdo sotiq ishlari olib borishga ruxsat berilgan edi. Buxoroda qimmatbaho qurol-yarog' ishlab chiqarish katta o'rin tutgan. Sovut, qalqon, oltin va kumushdan o'yima qilib o'rtasiga qimmatbaho toshdan «ko'z» yasalgan dubilg'a, shuningdek, Buxoro kamonlari (ba'zan bo'larga ham tilla suvi berilib

⁷³ Maradjabova F. E. "Внешняя политика Бухарского хана абдуллахана II" Markaziy Osiyo tarixi manbashunoslik va tarixnavislik izlanishlari. II ilmiy to'plam T. 2010. 117 b.

⁷⁴ R.Alimova "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi" "TDSHI" qo'llanma T. 2009. 7 b.

bezatilardi), bo'yalgan va oltin suvi berilgan po'lat va mis tulunboslar «iyakdan tikilgan va oltin qadalgan» sovutlar ishlab chiqarish bilan doing'i taratgan edi⁷⁵.

Rus xalqi va O'rta Osiyo xalqlarining hind xalqi bilan siyosiy, savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalari XVI asrning ikkinchi yarmi hamda XVIII asrda muvaffaqiyatli rivojlana boshladi. Hind tovarlari Buxoro orqali Moskva shahriga olib borilardi. Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi paydo bo'lgandan keyin O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasida o'rnatilgan mustahkam iqtisodiy, siyosiy hamda madanig aloqalar keyingi asrlarda ham uzulib qolmadi

Abdullaxon elchilari 1583 – yil Moskvadan o'q, dori, ov qushlari, mato olib kelganlar. Bunday elchilik 1589, 1595 – yillarda ham qaytarilgan. Shuningdek XVI – XVIII asrlardagi rus elchi va diplomatiyalarining matreallari, asosan XIX asrlarda nashr qilinadi. Lekin O'rta Osiyo xonliklarining qo'shni sharq davlatlari bilan savdo aloqalari haqidagi ma'lumotlar asosan, XVIII asr oxirlari va XIX asr boshlarida chop etilgan.

V.V. Bartoldning yozishicha XVI asrdan Buxoro xonligining tashqi aloqalariga doir ma'lumotlar Rossiyaga no'g'ay knyazlari orqali yetib kelgan ekan. Shu bilan birgalikda, so'ngi o'rta asrlarda jahon savdo yo'llarining o'zgarishi albatta savdo aloqalariga jiddiy tasir ko'rsatadi. Yuqorida keltirib o'tgan elchimiz Antoniy Jekinsonning sayohatdan maqsad va vazifalari tarixchilar tomonidan bir qadar o'rganildi. Masalan Y. A. Sokolov, “Moskva kompaniya” sining asosiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda, Hindistonga Rossiya sharqi bilan savdo aloqalari olib brogan yo'llari orqali kirib borish lozim bo'lgan, deb hisoblab: “Inglizlarning Rossiya orqali Hindistonga kirib borish yo'lini qidirib topish ishiga kompaniyaning eng faol vakillaridan biri A. Jekinson asos slogan edi”.

Demak asosiy maqsad Hindistonga boradigan savdo yo'lini toppish edi. U O'rta Osiyoga savdoni yo'lga qo'yish niqobi ostida Buxoroga borishga ruxsat

⁷⁵ Ermatov “O'rta Osiyo Rossiya va Hindiston xalqlari o'rtasidagi do'stona aloqalar tarixi” “O' SSR Dav nash” T. 1959.27 . b.

olgan Jekinson Maskva Rusining Buxoroga yuborgan birinchi rasmiy elchisi edi.

1585 yil Abdullaxon Muhammad Ali boshliq elchini Rossiya podshosi Fiyodar Ivanovichga o'zining nomidan bir qancha savg'a salomlar va hadyalar tarkibida 40 pud nil buyog'i bilan tortiq qilgan⁷⁶.

⁷⁶ R.Alimova "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi" "TDSHI" qo'llanma T. 2009. 11 b.

XULOSA

Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asari shayboniylar haqida to’liq ma’lumot beradigan manbadir. Bu kitob ikki qisimdan iborat bo’lib “Sharafnomayi shohiy” deb ham nomlangan. Kitobda O’zbekiston, Qozag’iston, shuningdek Afg’oniston va Eronning XVI asrdagi ijtimoiy – siyosiy tarixi ham bayon qilingan bo’lib, bu xalqlar o’rtasidagi madaniy, siyosiy, savdo, diplomatik munosabatlar haqida qimmatli ma’lumotlar keltirib o’tadi. Undan tashqari, asarda Buxoro xonligi bilan Eron, Hindiston, Qoshg’ar va Rossiya o’rtasidagi munosabatlar haqida ham ma’lumotlar keltirib o’tadi. Hofiz Tanish Buxoriy asarni XVI asrning 80 yillarida yozib tugallaganligi haqida zamondoshlaridan Mutribiy aytib o’tadi. Shuningdek Mutribiy bu asarning oxrgi qismini xonning buyrug’i bilan qozi Poyanda Zominiy yozgan deb keltirib o’tilgan. Biz uchun uning yozilish tarixidan ko’ra unda mamlakatimiz tarixida ro’y bergan voqealarni batafsil keltirilganligi va uning tarixda tutgan ahamiyatli jihatlaridir. “Abdullanoma” asari haqiqatdan ham noyob asarlar sarasiga kiradi va unda qamrab olingan davr jarayoni boshqa asarlarga solishtirganda ham haqiqiyligini bilishimiz mumkin. XVI asr ikkinchi yarmida Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni o’z ichiga olgan markazlashgan davlatning barpo etilishi, Buxoro xonligi siyosiy hayotida ma’lum darajada barqarorlikni ta’minladi. O’sha davrda siyosiy boshboshdoqliklarga va o’zaro taxt uchun kurashlarga barham berib, o’lkada osoyishtalikni o’rnatish mamlakatdagi yirik mulk egalari, hunarmand va savdogarlar ko’pchilik qismining ham istagi edi. Garchi Abdullaxon II bu maqsadga tinimsiz harbiy harakatlar natijasida erishib, xonlik aholisi ijtimoiy hayotida notinchliklarni yuzaga keltirgan bo’lsa ham, o’zaro ichki nizo va janglarga qisqa muddat bo’lsada barham berdi. Abdullaxon II tomonidan hokimiyat boshqaruvini yagona markaz ostiga birlashtirgan.

Mamlakatni markazlashtirish nafaqat hududiy birlik, balki, iqtisodiy jihatdan markazlashtirishni ham talab qiladi. Jumladan, pul birligini joriy etish va yagona pul siyosatini o’tkazish davlat mustaqilligi va mustahkamligining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. XVI asr ikkinchi yarmiga kelib, har bir

viloyat hokimlari tomonidan tangalar zarb qilinishi pulning qadrsizlanishiga olib kelgan va bu kayfiyatlar yanada kuchayishiga sabab bo'lgan; asosiysi esa ichki va tashqi savdoga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Kumush tangalarning davlat va bozordagi qadri tushib ketishi natijasida, ular muomaladan chiqqan. Dastlab Abdullaxon II kumush tangalar chiqarishni markazlashtirish maqsadida ko'pgina zarbxonalarni berkitgan. Faqat ayrimlarigagina mis tangalar ishlab chiqarishga ruxsat bergan. Kumush tangalarni zarb qilish Buxoroda yo'lga qo'yilgan. Buxoro zarbxonalari butun xonlikni kumush tanga bilan ta'minlagan va ular mamlakatning har bir burchagiga yetib borgan. Uning qiymati o'ttiz mis tangaga teng bo'lgan. Shuningdek, 1581 yil 13 oktyabrda Abdullaxon II farmoniga binoan oltin tangalarning zarb qilinishi markaziy hokimiyat mavqeini kuchaytirish bilan birga davlatning ichki va xalqaro miqyosdagi savdo-sotiq ishlari yaxshilanishiga yordam bergan. Shuningdek, Abulg'azi Bahodirxonning «Shajarai turk» asarida Abdullaxon II davrida zarb qilingan tangalar halqaro bozorda yuqori mavqega ega bo'lganligi e'tirof etilgan.

Xonlikda sug'orish inshootlarining qurilishi qishloq xo'jaligi rivojlanishiga, buning natijasida esa ishlab chiqarishning takomillashuviga sabab bo'lib, xonlik markazlashuvini yanada mustahkamlagan. Mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi, yagona pul siyosatining o'tkazilishi, yangi savdo rastalari, karvonsaroylarning barpo etilishi, karvon yo'llarining qayta ta'mirlanishi albatta faqatgina ichki savdo-sotiqning emas, balki tashqi savdoning ham yuksalishiga olib kelgan. Davlatning hududiy va iqtisodiy jihatdan birlashtirilishi natijasida qo'shni davlatlar oldidagi mavqei yanada o'sgan va bu Qozoq va Yorkend xonliklari tomonidan siyosiy, iqtisodiy jihatdan qudratli markazlashgan davlat sifatida tan olinib, ular bilan munosabatlar yaxshilanishiga olib kelgan.

XVI asr ikkinchi yarmida Buxoro va Dashti qipchoq o'rtasidagi harbiy ittifoqchilik aloqalarining kuchayishi o'zaro diplomatik aloqalarning avvalgiga nisbatan yaxshilanishiga sabab bo'lgan. Buxoro va Dashti qipchoq o'rtasidagi aloqalar o'zaro elchilik almashinuvi orqali ham olib borilgan. 1579 yilning

o'zida ikki marta Dashti qipchoqdan elchi kelganligi va unga javoban Abdullaxon II o'z elchisi bilan birga xat jo'natganligi fikrimizni tasdiqlaydi. Tadqiqot jarayonida aniqlangan ma'lumotlar, ular o'rtasidagi elchilik aloqalari doimiy ravishda olib borilgan deb xulosa qiladi.

Yuqorida keltirilgan manba va adabiyotlardagi ma'lumotlarga asoslanib shuni ta'kidlash lozimki, bu xalq o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Sirdaryobo'yi viloyatlari markaz vazifasini o'tagan.

Buxoro, Dashti qipchoq va Hindiston aholisi o'rtasida siyosiy va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi o'z o'rnida madaniy aloqalarga ham ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Bu davlatlar o'rtasidagi aloqalarning aksariyati abadiy do'stlik bilan tugagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- *Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Ma'naviyat T. 2008. 173 b.*
- *Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir T. O'zbekiston 1998. 278 b.*
- *Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q T. 7. – Toshkent. Sharq. 1999.*
- *Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot, ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11 – jild. T. O'zbekiston. 2003. 319 b.*
- *Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomayi shoxiy) Birinchi nashr / I jild. Forschadan S. Mirzaev tarjimasi, nashrga tayyorlovchi, so'z boshi va izohlar muallifi B.A. Ahmedov. - Toshkent: Fan, 1966. - 399 b;*
- *Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy. Abdullanoma. / II jild. Forschadan S. Mirzaev tarjimasi, nashrga tayyorlovchilar tarix fanlari kandidatleri R. G'ofurova, A. Juvonmardiev, B. Ahmedov. - Toshkent: Fan, 1969. – 361 b.*
- *B. Ahmedov Tarixdan saboqlar. O'qituvchi. T. 1994. 580 b.*
- *Abuseitova M.X. Kazaxskoe xanstvo vo vtoroy polovine XVI v. - Alma-Ata: Nauka, 1985. – 103 s.*
- *B. Ahmedov. O'zbek ulusi. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. Nur. T. 1992. 146 b.*
- *R.Alimova Markaziy Osiyo xalqlari tarixi TDSHI qo'llanma T. 2009. b.*
- *Ermatov. O'rta Osiyo Rossiya va Hindiston xalqlari o'rtasidagi do'stona aloqalar tarixi. O'zb SSR Dav T. 1959. 63 b.*
- *Bartold V.V. Uzbekske xanstva. Soch. T. II (I). S. 268-292*
- *Hofiz Tanish Buxoriy Abdullanoma tarj. II tom Sharq. T. 2000. 288 b.*

- *V. Rahmonov va Y. Ermatova tarjimasi. Tarixiy Rashidiy. Sharq. T. 2010. 720 b.*
- *Barakaev Buxoro tarixi. O'qituvchi. T. 143 b.*
- *Maradjabova F. E. К истории Ташкентского Восстания 1558 года. Markaziy Osiyo tarixi: manbashunoslik va tarixshunoslik izlanishlar. I ilmiy to'plam T. 2009. 353 b.*
- *O'zbekiston Milliy ensklopidiyasi . I tom . Dav milliy T. 2000. 33. b.*
- *Maradjabova F. E. Внешняя политика Бухарского хана Абдуллахана II. Markaziy Osiyo tarixi manbashunoslik va tarixnavislik izlanishlari. II ilmiy to'plam T. 2010. 493 b.*
- *Nizomiddinov XVI – XVIII asrlarda O'rta Osiyo Hindiston munosabatlari O'z SSR Fan T. 1966. 117 b. va O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari. O'zb SSR dav. T. 1961. b. 120. b.*
- *M. M. Xayrullaaev O'zbek diplomatiyasi tarixi Sharq.. T. 373 b.*
- *Madraimov, G. Fuzailova. Manbashunoslik .O'zb. Faylasuflar milliy jam. T. 2008. 263. b.*

(imzo)

Kafedra mudiri Ishoqov M.

(imzo)

O'quv – uslubiy bo'lim boshlig'i